



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2022, № 1

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Nargiza RAXMANQULOVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir Akbarov

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **A.A.Ibragimov**
Ta'lim jarayonida kognitiv texnologiyalarni qo'llashning konseptual asoslari
- 9 **J.O.Tolipova**
Uzluksiz ta'lim jarayonida xalqaro pedagogik tadqiqotlarning kvalimetrik asoslari
- 14 **U.E.Raxmatov**
Biologiya yo'nalishida uzluksiz ta'lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish borasidagi islohotlar
- 20 **Z.Dadaboyeva**
Iqtisodiy bilimlarni matematika fani bilan uzviyligini ta'minlash masalalari
- 23 **M.M.Axmedov**
Uzluksiz musiqa ta'limida pedagogik tizim tuzilmasi va xususiyatlari
- 28 **J.E.Usarov, S.A.Haydarova**
O'quvchilarda amaliy kompetentlikni shakllantirishning metodik jihatlari
- 33 **P.X.Djuraev**
Педагогическое сопровождение одарённых детей образовательными учреждениями
- 38 **A.G.Madjuzga, D.D.Sharipova, A.B.Rybakov, H.A.Samolova, P.B.Sabekiya**
Философско-методологические основы здоровья здорового образа жизни в третьем тысячелетии
- 50 **A.X.Maxmudov**
Методологические аспекты цифровой педагогики в системе непрерывного образования
- 54 **B.P.Djuraeva**
Работа специалистов в дошкольных образовательных организациях в условиях инновационной среды
- 58 **C.A.Abidova**
Непрерывность и преемственность в системе школьного и высшего образования на примере предмета зоологии

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 62 **M.N.Ibodova**
Biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlarida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda axborot resurslardan foydalanish metodikasi

MA'NAVIY TARBIYA

- 66 **E.Y.Ro'zimatov**
O'quvchi-talabalarda vatanparvarlik hissini shakllantirishda ma'naviy merosning o'rni
- 70 **A.A.Abdugapparov**
Ta'lim tizimida musiqa pedagogikasining hozirgi muammolari
- 75 **H.M.Turayeva**
Bolajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish omillari

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 80 **N.A.Karimova**
Biologiya darslarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning nazariy tahlili
- 84 **R.B.Yarmatov**
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligida kompetentlik modelining ahamiyati
- 88 **S.S.Yarashev**
O'zbekiston harbiy oliygohlarida ofitserlarning uzluksiz texnologik kompetentligini rivojlantirish
- 92 **A.G.Ibragimov, I.T.Mexmonov**
O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda innovatsion boshqaruv faoliyatining tashkiliy xususiyatlari
- 97 **M.E.Jumayev, Z.A.Artikbayeva, G.T.Tanganmuratova**
Umumkasbiy fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak mutaxassisning tafakkur madaniyatini muvaffaqiyatli rivojlantirish

ХОРИЖИЙ ТА'ЛИМ

- 101 **A.A.Ismailov**
O'quvchilar yutuqlarini baholash milliy tizimini joriy etishda xorijiy tajribalar (Hindiston va Vetnam misolida)
- 101 **H.Файзуллаева**
Комплексный подход к образованию в целях устойчивого развития



TA'LIM JARAYONIDA KOGNITIV TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

A.A. IBRAGIMOV,

Samarqand viloyati XTXQTMOHM dotsenti, p.f.f.d.

Maqolada o'tmish pedagogikasi hamda bugungi davr talablari tahlili, ta'lim va jamiyatning hamohang rivojlanish tendensiyalari, kognitiv tadqiqotlar nazariyasi yoritilgan. Shuningdek, kognitiv ta'lim texnologiyalari pedagog xodimlarning kasbiy rivojlanish va o'qitish jarayonlarida ongli faoliyatni amalga oshirish mexanizmi sifatida tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, kognitiv texnologiya, bilish, kognitiv tadqiqotlar, yondashuvlar, nazariyalar.

The article describes the pedagogy of the past and the analysis of the requirements of the present, the trends of harmonious development of education and society, the theory of cognitive research. Cognitive learning technologies have also been studied as a mechanism for the implementation of conscious activities in the professional development and training processes of pedagogical staff.

Key words: education, cognitive technology, cognition, cognitive research, approaches, theories.

В статье освещена педагогика прошлого, представлены анализ современных требований, тенденции гармоничного развития образования и общества, раскрыта теория когнитивных исследований. А также изучены технологии когнитивного образования в процессе профессионального развития и обучения педагогических работников как механизма реализации осознанной деятельности.

Ключевые слова: образование, когнитивная технология, знание, когнитивные исследования, подходы, теории.

Insonparvarlik pedagogikasi yo'nalishlarini tadqiq qilgan turli soha mutaxassislaridan iborat ekspertlar guruhi uzoq yillik kuzatishlari natijasida maktab ta'limining joriy holati yuzasidan quyidagi xulosalarga kelishgan: "Maktab juda sekinlik bilan o'zgarimoqda. U zamon talablaridan ortda qolmoqda. Oqibatlar esa barchaga ta'sir ko'rsatadi. Maktab insonni o'zgarishlarga tayyorlaydi, sodir bo'layotgan o'zgarishlarning turlicha yo'nalganligiga o'rgatadi yoki bitiruvchini yangiliklar, kutilmagan holatlar bilan yakkama-yakka qoldiradi. Ko'pincha, bunday harakatsizlikning oqibatlar ayanchli bo'ladi: o'tmishni qo'msash, ixtiyoriy yangiliklarga allergiya tuyish, rivojlanishni rad qilish, xavfsizlik g'oyalari sig'inish. Biz erkinlikdan qochish, arxaizmga qaytish, qo'rquv asosida jipslashish, dushmanlar va aybdorlarni qidirishni kuzatyapmiz". Manbada bo'lajak pedagog xodimlarning metodik tayyorgarligi borasida ham qiziqarli xulosalar



berilgan: “O‘qituvchilar tayyorlashda oliy ta’lim muassasalari tomonidan ma’qullangan ma’lum sondagi o‘qitish metodikalarini o‘zlashtirishni ifodalovchi “nazariyadan amaliyotga” bo‘lgan mumtoz yondashuv tarixda qoldi. Oliy ta’lim muassasalarining sxolastik xususiyatga ega bo‘lgan pedagogikaga oid darsliklari, ko‘p o‘qish va yodlash bo‘lajak o‘qituvchilarga bolalarga to‘g‘ri yondashishda allaqachon yordam bermay qo‘ygan. Pedagogik ta’lim maktab sarhadlaridan tashqariga chiqdi”.

T.Blinova [7, 14-b.] mazkur yondashuvni tahlil qilib, “maktab sarhadlaridan tashqariga chiqdi” emas, balki chiqishi shart, deya qaralishi lozimligini bildiradi. Uningcha, o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni sezilarli o‘zgarishlarni talab qiladi va o‘qitishga bo‘lgan urg‘uni yangi bilimlarni olishga emas, balki talabalarda amaliy ko‘nikmalar shakllanishi uchun ularning o‘qituvchilar bilan hamkorlikka erisha olish va natijadorlikka qaratish lozim.

Axborotlar oqimining shiddati, ko‘lami va uning yuqori darajada to‘yinganligi inson idrokining ularni hazm qilishga ulgurmasligiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur sharoitlarda, ta’lim jarayoni o‘qitishning noan’anaviy yondashuvlari va yangi ta’lim texnologiyalariga kuchli ehtiyoj sezadi. Bunda o‘qituvchilarni “turbulent” vaziyatlarda o‘z o‘rnini topish, shaxsning kuchli jihatlarini rivojlantirish, uzluksiz takomillashish va doimiy o‘qish holatida bo‘lishga tayyorlash muhim omil bo‘lishi zarur.

Ta’lim tizimining jamiyat ehtiyojlari bilan hamohang rivojlanib borishi natijasida bilish, ya’ni tafakkur, diqqat, idrok, xotira, tasavvur va o‘z-o‘zini anglash jarayonlariga e’tibor qaratiladigan o‘qitishning kognitiv texnologiyalari tushunchasi ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kognitiv ta’lim texnologiyalari ta’lim oluvchilarni, aynan yuqorida ta’kidlangan axborotlar bilan to‘yingan sharoitlarda o‘rnatish, qiyinchiliklarsiz moslashish, atrof-muhitni o‘rab turgan voqelikni tushunish va uzluksiz intellektual rivojlanishini ta’minlovchi metod va usullarni ifodalaydi.

Kognitiv tadqiqotlar inson mavjudligining tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga bog‘liq bo‘lsa-da, shaxsiyat rivojlanishining ruhiy, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini tizimini faqatgina o‘zi yaratishi mumkinligini tushunishida yangi sahifa ochib berdi. Bunday anglanish hozirgi sharoitlarda ishlab chiqarish va fandagi yuksalishlar hamda ehtimoliy xatarlar aynan bitta shaxs, jamoa, jamiyat bilan bog‘liq, degan xulosaga olib keladi. Umumiy holda, kognitivlik nazariyasi idrok orqali qarorlar qabul qilish va axborotlarni qayta ishlashni nazarda tutadi. Yangi asrda jamiyat rivojlanishi ham aynan kognitiv texnologiyalar ta’siri doirasida bo‘ladi.

Tadqiqotlarda kognitiv texnologiyalarga turlicha tavsif berilgan. Jumladan, “sub’ektlarning neyrofan, o‘z-o‘zini tashkil qilish nazariyasi, axborot texnologiyalari,

ong elementlarini kompyuter modellashtirish va bir qator boshqa ilmiy yo'nalishlarga doir tushunchalar hamda insonning bilish, o'qish, o'zaro aloqada bo'lish, axborotlarni qayta ishlash jarayonlariga tayanish asosida ko'zlangan maqsadga erishish algoritmi va usullari" [1, 178-b.], "inson va hisoblash tizimlari orasidagi interfeyslar texnologiyasi" [8, 346-b.], "o'quvchida zamonaviy axborotlashgan jamiyatda yashashga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan kognitiv sxemalar tizimini shakllantirish orqali atrof-muhitni tushunishini ta'minlovchi individual yo'naltirilgan mustaqil ta'lim texnologiyasi" [5], "o'quvchilarning kognitiv rivojlanishi va o'quv jarayonini boshqarishning psixologik nazariyalariga asoslangan algoritmik turdagi texnologiya" [5] va boshqa shakllarda talqin qilingan.

Kognitiv yondashuvda tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur, idrok kabi bilish jarayonlari insonning atrof-muhit bilan axborot almashishida bir butun hodisa sifatida qaralar ekan, bunda ta'lim oluvchilarning axborotlarni turlicha qabul qilishi va anglashiga e'tibor qaratish zarur. Shuning uchun, ta'lim oluvchilarda o'quv materialini shunchaki o'zlashtirishni emas, uni tushunish, anglash, qayta ishlash va bilimlarni egallashga bo'lgan shaxsiy intilishi bilan erishish maqsadini qo'yish hamda amalga oshirish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Shunday yondashuvlardan biri, amerikalik psixolog, o'qitishning kognitiv yondashuvi asoschilaridan J.Brunerning [14] tadqiqotlarida ilgari surilgan bo'lib, bu – kashfiyotlar orqali o'rgatish nazariyasidir. Unga ko'ra, material o'qituvchi tomonidan tugullanmagan ko'rinishda beriladi, o'quvchilar esa taqdim qilingan axborotlar asosida ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni o'zlari aniqlashlari va yakunlashlari lozim bo'ladi. Bruner tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni kodlashtirish tizimi, deb nomlaydi. Ya'ni, kashfiyot – kodlashtirish tizimining mustaqil shakllanishidir (o'qitish jarayonida bu o'qituvchining yordamida amalga oshiriladi). Mazkur nazariyada kashfiyotlar orqali o'rgatishga ko'maklashuvchi to'rtta shartlar guruhi taklif qilinadi:

– moslash – muayyan obraz bilan munosabat bildirishga bo'lgan moyillik. Agar inson kashfiyotga intilayotgan bo'lsa, odatda, uning o'zi axborotlarning tarqoq birliklari orasidagi o'zaro bog'liqlikni topishga urinib ko'radi. Shuning uchun o'quvchilarni doimo bu jarayonga undash zarur;

– ehtiyoj holati – bu o'quvchining qo'zg'alganlik, hayajonlanganlik yoki tayyorlik darajasi;

– aniqlashtirishni egallaganlik – bu o'quvchining fanga aloqador bo'lgan axborotni avvaldan qay darajada egallaganligini bildiradi. Kashfiyot – tasodifiy holat emas, u inson yaxshi tayyorlangan bo'lsa yuzaga chiqadi. O'quvchida avval egallagan axborotlari ko'lami qanchalik keng bo'lsa, uning mazkur axborotlar



ichidagi munosabatlarini aniqlashtirish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

Kognitiv o'qitish nazariyasi bilan shug'ullangan yana bir olim D. Ausyubel [15], kashfiyotlar orqali o'rgatishni vaqtni bekor sarflash hamda direktiv yondashuv tarzida baholaydi. Shu bilan birga, unda direktiv (markazda pedagog bo'lgan) va konstruktiv (markazda ta'lim oluvchi bo'lgan) o'rgatish orasidagi o'zaro kelishuv mavjudligini ham e'tirof etadi.

Ausyubel nazariyasiga muvofiq aksariyat insonlar tasavvur orqali o'rganishadi, ya'ni bilimlarni nisbatan to'liq shaklda qabul qilishadi. Bunday o'rgatishda ko'rgazmalilik ustun bo'lib, o'qituvchi o'quvchilar uchun axborotlarni topish va yetkazishga mas'ul vositachiga aylanadi. Mazkur nazariyada "idrok qilingan verbal o'rgatish" g'oyasi yetakchilik qiladi (ya'ni, tasavvur bilimdan ustun) va ob'ekt avvaldan ma'lum bo'lgan biror bir narsa bilan bog'langanda ma'no kasb etadi, deb qaraladi (masalan, "Traktor" tushunchasi – traktor obrazi).

Idrok qilingan o'qitish yangi material bilan bog'lash mumkin bo'lgan tanish tushunchalarni o'zlashtirishni talab qiladi. Bunday bog'liqliklarni hosilaviy va korrelyativ turlariga ajratish mumkin. Hosilaviy bog'liqlikda yangi material avvaldan tanish bo'lganga o'xshaydi va uni eskisidan chiqarib olish mumkin. Korrelyativ bog'liqlikda esa material yetarlicha yangi bo'lib, mavjud kognitiv tuzilmaga ayrim o'zgartirishlar kiritishni ifodalaydi.

Ta'lim oluvchining yangi material bilan avval o'zlashtirganini farqlay olishidagi yengillik muhim o'zgaruvchanlik sharti sifatida Ausyubel nazariyasining asosini ifodalaydi va bu holat o'zlashtirilgan materialning barqarorligini taminlaydi. Uning fikricha, agar axborot avvalgi bilimlarni eslatga (hosilaviy bog'liqlik), u tez unutiladi, jiddiy farq qilsa (korrelyativ bog'liqlik), uzoq muddat saqlanadi. Mazkur yondashuvda yangi bilimlar shakllanishining avval egallanganiga uzviylik holatlarining mavjudligi ayrim jihatlari bilan Bruner nazariyasiga yaqinligini ko'rsatadi.

Shuningdek, ko'plab olimlar tomonidan kognitiv o'qitish g'oyalariga asoslangan izlanishlar olib borilgan va muvaffaqiyat bilan ta'lim jarayoniga tatbiq qilingan:

- o'qitishning kognitiv texnologiyasi [4];
- intellekt-karta metodiga asoslangan assotsiativ aloqalarni vizuallashtirish texnologiyasi [2];
- tushunchalar kartasiga asoslangan semantik munosabatlarni vizuallashtirish texnologiyasi [6];
- kognitiv vizuallashtirish asosida didaktik ob'ektlarni modellashtirish [12];



- o‘quv axborotini zichlashtirish metodi [9];
 - mantiqiy-ma’noli modellar, ko‘p qirrali didaktik qurilmalar [16];
 - bilimlarni freym shaklida taqdim qilishga asoslangan ta’lim texnologiyasi [11];
- TRIZ pedagogikasi [13];

Yuqorida ko‘rsatilgan texnologiyalar o‘qituvchi uchun kasbiy o‘shishga, uzluksiz rivojlanishga xizmat qiladi, jumladan, ularni malaka oshirish ta’limi jarayonlarida qo‘llash tinglovchilarning o‘quv mazmunini to‘liq tushunish, anglash, qayta ishlash va o‘z faoliyatlarida samarali qo‘llashlariga imkon yaratadi. Ayniqsa, ushbu faoliyatga kiritilayotgan noan’anaviy yondashuvlar, malaka oshirishning muqobil turlari taklif etilayotgan, onlayn shaklda mustaqil ta’lim olishga e’tibor kuchayayotgan bir paytda ularni qo‘llash sifatga va ko‘zlangan natijalarga erishishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kognitiv ta’lim texnologiyalari ta’lim oluvchilarga uzatiladigan axborotlar sifatini sezilarli yaxshilash hamda ularni chuqur qayta ishlashini ta’minlovchi bilimlar tizimini taklif qilish asosida samarali yechimlarga ega bo‘lish imkonini beradi. Asosiy e’tiborni o‘qitish mazmunini o‘zlashtirganligi haqida qayta axborot olish metodlariga qaratish zarur, chunki ixtiyoriy axborot alashinuvida kognitiv sabablarga ko‘ra muqarrar yo‘qotishlar va buzilishlar ro‘y beradi [3].

Demak, ta’lim tizimida kognitiv texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quv mazmunini o‘zlashtirish darajasini oshirish, tinglovchilar tomonidan uni to‘liq tushunish va faoliyatida samarali qo‘llashga erishish mumkin. Bu natija esa o‘qituvchilarning kasbiy, kognitiv va axborot kompetentligini rivojlantirishga jiddiy turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акаев А.А., Коротаев А.В., Малинецкий Г.Г. Прогноз и моделирование кризисов и мировой динамики. – М.: УРСС, 2010. – 352 с.
2. Бершадская Е.А. Способы введения метода интеллект-карт в начальной и основной школе // Современные образовательные технологии. Теория и практика: сборник научных статей и методических материалов / под ред. В. В. Ефимовой. – Новокузнецк, 2011. – 189 с. – С. 101-114.
3. Бершадская Е.А., Бершадский М.Е. Когнитивные технологии в образовании // Педагогические науки. Серия “Педагогика. Психология. Философия”. – Москва, 2016. – № 3. – С. 5-11.
4. Бершадский М.Е. Когнитивная технология обучения: теория и практика применения. – М.: Сентябрь, 2011. – 256 с.



5. Бершадский М.Е. Когнитивная образовательная технология [Электрон ресурс]. – http://bershadskiy.ru/index/kognitivnaja_obrazovatelnaja_tekhnologija/0-27.
6. Бершадский М.Е. Карты понятий как метод обучения // Современные образовательные технологии. Теория и практика: сборник научных статей и методических материалов / Под ред. В. В. Ефимовой. – Новокузнецк, 2011. – 189 с. – С. 39-57.
7. Блинова Т.Л. Методология обучения математики в рамках когнитивистского подхода // Педагогическое образование в России. – Москва, 2017. – № 6. – С. 13-20.
8. Величковский Б.М. Когнитивная наука: Основы психологии познания. В 2 т. Т. 1. – М.: Смысл: Издательский центр «Академия», 2006. – 448 с.
9. Грушевский С.П., Остапенко А.А. Сгущение учебной информации в профессиональном образовании: монография. Краснодар: Кубан. гос. ун-т. – 2012. – 188 с.
10. Гуманистическая педагогика: XXI век // Новая газета. – Москва, 2015. – 12 октября. – С. 112.
11. Гурина Р.В., Соколова Е.Е. Фреймовое представление знаний. Монография. – М.: Народное образование; НИИ школьных технологий, 2005. – 176 с.
12. Манко Н.Н. Когнитивная визуализация педагогических объектов в современных технологиях обучения // Образование и наука. – 2009. – № 8 (65). – С. 10-30.
13. Нестеренко (Селюцкая) А.А. Мастерская знаний: проблемно-ориентированное обучение на базе ОТСМ-ТРИЗ. Учебно-методическое пособие для педагогов. – М.: BOOKINFILE, 2013. – 603 с.
14. Представление о подходе когнитивных психологов процессу учения путем открытий на примере Дж.Брунера [Электрон ресурс]. – https://studbooks.net/896811/psihologiya_predstavlenie_podhode_kognitivnyh_psihologov_protessu_ucheniya_putem_otkrytiy_primere_brunera.
15. Теория Дэвида Аусубеля: научение путем рецепции [Электрон ресурс]. – <https://cyberpedia.su/6x89eb.html>.
16. Штейнберг В.Э. Дидактическая многомерная технология: монография. – Уфа: БИРО, 1999. – 86 с.



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA XALQARO PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING KVALIMETRIK ASOSLARI

J.O.TOLIPOVA,

pedagogika fanlari doktori, professor v.b

Respublikamizda joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini nazorat qilish va baholash, mazkur tizimda pedagogik faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini aniqlashda pedagogik kvalimetriya metodlari muhim o'rin tutadi. Shunday ekan, maqolaning asosiy mazmuni mazkur metodning xalqaro pedagogik tadqiqotlar rivojidagi ahamiyatiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: *pedagogik tadqiqotlar, xalqaro pedagogik tadqiqotlar, kvalimetriya, test, o'qituvchi, ta'lim sifati ko'rsatkichlari, uzluksiz ta'lim tizimi, o'qituvchi-professorlar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari.*

Methods of pedagogical qualimetry play an important role in monitoring and evaluating the effectiveness of the educational process in all parts of the system of continuing education, introduced in the country, determining the level of professional and pedagogical training of teachers working in this system. Therefore, the main content of the article is devoted to the importance of this method in the development of international pedagogical research.

Key words: *pedagogical research, international pedagogical research, qualimetry, testing, teacher, indicators of education quality, continuing education system, teaching professors, modern educational technologies.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yangi O'zbekistonni barpo etish maktab ostonasidan boshlanadi degan fikrni davom ettirib, ta'lim tizimida 3-Renesans uchun zamin tayyorlanganligini ta'kidladi. Shuningdek, maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmun ham, muhit ham o'zgarmasligini qayd etdi.

Ta'lim sifati ko'rsatkichi darajasini orttirish uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir kompetensiyalarni B.Blum o'quv taksonomiyalariga asoslangan holda maqsadga muvofiq muntazam va tizimli baholash zaruratini keltirib chiqaradi.

O'zR Vazirlar Mahkamasi tomonidan 8 dekabr 2018 yilda qabul qilingan 997-sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ta'lim tizimini modernizatsiyalash, ta'lim sifati va samaradorligi ko'rsatkichini orttirish jarayonida dunyoning rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimining ilg'or ish tajribalari o'rganish, amaliyotga joriy etish va ommalashtirishni nazarda tutadi.



Mazkur qarorda uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholashni bugungi kun talablariga moslashtirish, o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirish, xalqaro baholash dasturlarini pedagogik amaliyotda qo'llash innovatsion metod va texnologiyalarini ishlab chiqish, jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi ta'lim muassasalari bilan ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish, ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish, mazkur tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash, olingan natijalarni boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash, xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqish, o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash kabi vazifalar belgilangan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish ta'lim xizmatlari sifatini orttirish, ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, ta'lim sifati ko'rsatkichi bo'yicha yuqori darajani egallash maqsadida o'qituvchining pedagogik va tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishni talab etadi.

Uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan yangilash, axborotlar globallashtirish bir davrda mazkur ta'lim tizimida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni modernizatsiyalash, mazkur jarayonga innovatsion texnologiyalarni qo'llashga oid metodik bilim, ko'nikma va malakalarini yangilash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat yuritayotgan pedagog va o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni modernizatsiyalash, B.Blum o'quv taksonomiyalariga asoslangan holda maqsadga muvofiq tashkil etishga zamin tayyorlaydigan pedagogik tadqiqotlar olib borish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Mazkur pedagogik tadqiqotlar asosida modullar va o'quv kurslari mazmunini yoritadigan o'quv-metodik majmua, elektron darsliklar, nostandart adaptiv testlar bankini yaratish orqali tahsil oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ta'lim



samaradorligiga erishish uchun zarur bo'lgan o'qituvchilarning metodik bilim, ko'nikma va malakalari, kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish va yangilash, ularni davlat talablari va jahon ta'lim standartlari darajasiga ko'tarish 3-Renesansning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi vazifalarni e'tiborga olgan holda professor-o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim mazmuniga bog'liq innovatsion ta'lim texnologiyalarini tanlash, mashg'ulotlar ishlanmasi va texnologik xaritalarni loyihalash, ularda belgilangan o'quv maqsadlarni amalda qo'llay olishi, tahsil oluvchilarning yosh, psixologik va ergonomik xususiyatlariga asosan tahsil oluvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish uchun quyidagi metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, xususan:

Ma'ruza mashg'ulotlarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalar, amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash;

ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik kvalimetriya metodlaridan samarali foydalanish uchun nostandart test topshiriqlarini maqsadga muvofiq tuzish va amalda qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik bilim va ko'nikmalarni egallash;

O'qituvchilarni pedagogik kvalimetriya metodlaridan biri bo'lgan mashg'ulotlarni tahlil qilishga o'rgatish, o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va korreksiyalash, tahliliy - tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish;

Ta'lim-tarbiya jarayonida teskari aloqani amalga oshirish, olingan natijani tahlil qilish, va jarayonning borishiga tegishli o'zgartirish kiritishi;

Pedagogik jarayonni nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan kvalimetriya metodlarining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'z o'rnida samarali foydalanish;

O'qitishda standart va nostandart testlardan foydalanish, test topshirig'ining tarkibi, mazmuni va samaradorligiga qo'yiladigan talablar asosida o'z sohasi bo'yicha reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli va ijodiy test topshiriqlarini tuza olish;

Tahsil oluvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashning samarali yo'llari sifatida nostandart test topshiriqlarini qo'llash, shu asnoda reyting tizimini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan metodik bilim, ko'nikma va malakalarini egallashi lozim.



Pedagogik tadqiqotlar o'tkazishda kvalimetriyaning fan sifatida quyidagi konseptual asoslari mavjud:

Pedagogik kvalimetriya uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining sifati, tahsil oluvchilarning o'zlashtirish darajasi va sifati, pedagogik kadrlarning kasbiy malaka darajasini aniqlash va umumlashgan xulosa yasash imkonini yaratadi.

Pedagogik kvalimetriya tadqiq etilayotgan ob'ekt yoki jarayonning sifat ko'rsatkichini dinamik kategoriya sifatida qabul qiladi va kelgusida zamon talablari, uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan davlat va ijtimoiy buyurtmalar asosida ushbu sifat ko'rsatkichi darajasining ortishini nazarda tutadi.

Pedagogik tadqiqotlar o'zaro uzviy va aloqador ikkita soha nazariy kvalimetriya va amaliy kvalimetriya yutuqlari asosida shakllantirilishi va rivojlanishi lozim.

Pedagogik kvalimetriya bo'lajak pedagogik kadrlarning pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasining malaka talablariga mosligi, uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning kasbiy malakasi, mazkur bosqichda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining sifati, tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nika va malakalari, kasbiy kompetensiyasi (layoqati)ning DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nika malaka, tayanch va fanga doir kompetensiyalarga mosligi, oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan mavjud kafedralarning pedagogik kadrlar tayyorlash sifati, o'quv rejadan o'rin olgan kurslarning moddiy va didaktik ta'minoti sifatini belgilangan tartibga muvofiq reyting asosida nazorat qiladi va baholaydi.

Ta'lim xizmatlarining istiqbol rejalarini shakllantirish bosqichida ta'lim davlatimizning ijtimoiy sohadagi ustuvor yo'nalish ekanligi nazarda tutilgan holda, axborotlar globallashtirish, dunyoda sodir bo'layotgan g'oyaviy-siyosiy o'zgarishlar, jahonning rivojlangan mamlakatlari ta'lim muassasalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar, jamiyat hayotidagi ma'naviy-ma'rifiy yangilanishlarni e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonining zamon talablariga mos tashkil etilishini nazorat qilish imkonini beradigan me'yoriy talablarni ishlab chiqish;

Pedagogik tadqiqotlarda kvalimetriyaning ilmiy-tadqiqot metodlari taqqoslash, olingan natijalarni matematik statistik metod vositasida tahlil qilish va xulosa yasash, pedagogik kadrlarni suhbatdan o'tkazish, o'qituvchilarning fikr-mulohazalarini aniqlash maqsadida kouching so'rovnomasi o'tkazish, superviziya ko'rsatmalarini ekspertizadan o'tkazish, ijtimoiy fikrni o'rganish metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi.



Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini nazorat qilish va baholashda tashxislash, ekspertiza, monitoring va pedagogik kvalimetriyadan foydalaniladi.

Pedagogik o'lchov nazariyasiga asoslangan kvalimetrik yo'nalish o'zining keng qamrovliligi, test jarayonining daxlsizligi, olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish, tahsil oluvchilarning rivojlanish darajasi va bilimlarni o'zlashtirish sifati haqida qat'iy aniq va ranjerli natijalarni olish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari shu jumladan, oliy ta'lim muassasasida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar pedagogik kvalimetriyani fan sifatida ob'ekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, prinsiplari, kvalimetrik shkala, kvalimetrik jarayonning bosqichlari, pedagogik kvalimetriya metodlari vositasida ta'lim-tarbiya jarayonini tashxislash va baholash, olingan natijaga muvofiq umumiy xulosalash, kasbiy-pedagogik faoliyatda kvalimetriya metodlarini qo'llashdagi yondoshuvlarning mazmun-mohiyatini anglashi lozim.

Muayyan o'quv kursi bo'yicha tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashda kvalimetriyaning asosiy metodlaridan biri, test topshiriqlaridan foydalanish ham kvalimetrik jarayonni induktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etilishiga misol bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish maqsadida tashkil etiladigan pedagogik tadqiqotlarda kvalimetriya metodlaridan foydalanish ta'lim samaradorligini aniqlash, mavjud kamchiliklarga barham berishga zamin tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Педагогическая квалиметрия. Историко-методологический аспект. // Педагогика. 2012. №2 108-111 стр.
2. Толипова Ж.О. Педагогик квалиметрия. Маърузалар матни ва амалий машғулотлар. –Т.: ТДПУ. 2015. 108-с.
3. Толипова Ж.О. Биология ўқитувчисининг илмий-методик тайёргарлиги даражасини орттиришнинг назарияси ва амалиёти. Монография. –Т.: “Фан”. 2005 й. 114-б.



BIOLOGIYA YO'NALISHIDA UZLUKSIZ TA'LIM SIFATI VA ILM-FAN NATIJADORLIGINI OSHIRISH BORASIDAGI ISLOHOTLAR

U.E.RAXMATOV,

*TDPU Biologiya kafedrasi dotsenti v/b,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Maqolada uzluksiz ta'lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish borasida mamlakatimizda amalga oshiriladigan keng qamrovli islohotlar, biologik ta'lim tizimida uzviylik va izchillik muammolari hamda mazkur muammolarni bartaraf etish yo'llari keltirilgan. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirish jarayonida pedagoglar jamoasining istiqboldagi vazifalari bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim sifati, uzluksiz ta'lim milliy dasturi, Milliy o'quv dasturi, STEAM ta'limi, kredit-modul tizimi, kimyo, biologiya, fizika, geologiya, matematika, geografiya, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar.

The article presents the large-scale reforms carried out in our country to improve the quality of continuing education and the effectiveness of science, the problems of inalienability and consistency in the system of biological education, as well as ways to solve these problems. The tasks of the teaching staff for the future in the process of improving the quality of education are also outlined.

Key words: quality of education, national program of continuing education, national curriculum, STEAM training, credit-modular system, chemistry, biology, physics, geology, mathematics, geography, laboratory and practical classes.

В статье представлены широкомасштабные реформы, проводимые в нашей стране по повышению качества непрерывного образования и результативности науки, проблемы неотъемлемости и последовательности в системе биологического образования, а также пути решения этих проблем. Также изложены задачи педагогического коллектива на перспективу в процессе повышения качества образования.

Ключевые слова: качество образования, национальная программа непрерывного образования, национальный учебный план, обучение STEAM, кредитно-модульная система, химия, биология, физика, геология, математика, география, лабораторные и практические занятия

Dunyo miqyosida uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish, shu asnoda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim strategik yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu borada mamlakatimiz ta'lim tizimida ham keng qamrovli islohatlar amalga oshirilmoqda va ta'lim sifatini tubdan isloh qilishga oid yetarli darajadagi huquqiy asoslar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan.

Uzluksiz ta'lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish borasida Prezident Mirziyoyev



Shavkat Miromonovich va ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan mutasaddi vazirliklar tomonidan so'nggi besh yil davomida qator farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Xususan: umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malaka oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini isloh qilish borasida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5313-son farmoni, 2019 yil 29 aprelidagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni, 2020 yil 12 avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4805-son qarori, 2017 yil 20 aprelidagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarorlari bilan yana ko'plab huquqiy asoslarning yaratilganligini ta'kidlash lozim [4].

Yuqorida keltirilgan farmon va qarorlarda barcha fanlar bilan bir qatorda kimyo, biologiya va geologiya fanlarini rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishga oid islohatlar qatoriga:

– mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlari bo'yicha ta'lim sifatini tubdan oshirish; umumta'lim maktablarida ushbu fanlarni o'qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish; ta'lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o'quv jihozlari bilan ta'minlash; ushbu yo'nalishlarga malakali o'qituvchi-murabbiylarni jalb etish; kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta'lim, ilm-fan hamda ishlab chiqarish sohalari o'rtasida o'zaro yaqin muloqot, hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi jihatlarni ta'kidlash joiz.

Mazkur vazifalarning amaliyotini ta'minlash bo'yicha mamlakatimizning har bir hududida kimyo va biologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan 14 ta tayanch ixtisoslashtirilgan maktablarining tashkil etilishi va Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining ushbu maktablar maqomiga moslashtirishi, shuningdek, respublika tuman (shahar)larida bosqichma - bosqich kimyo va biologiya fanlarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan 150 ta maktablarini tashkil etishi hamda tayanch ixtisoslashtirilgan maktablar va ixtisoslashtirilgan maktablarda kimyo va biologiya fanlarini samarali o'qitishni muvofiqlashtirish uchun oliy ta'lim muassasalarining 55 ta kafedralarini birlashtirishi fikrimizning yaqqol isboti.

Umumta'lim muassasalarida 2020-2021 o'quv yilida kimyo va biologiya fanlariga qiziqishi bo'lgan o'quvchilar uchun tajriba - sinov sifatida joriy etilayotgan tabiiy fanlar



yo'nalishidagi variativ (o'zgaruvchan) o'quv rejalarini bosqichma-bosqich o'quv jarayonida foydalanishni yo'lga qo'yish, shuningdek, o'quvchilar-ning amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida tabiiy fanlar o'quv dasturlarida amaliy mashg'ulotlarning ulushini ko'paytirish yuzasidan aniq topshiriqlar belgilangan [2].

Mazkur vazifani bajarish bo'yicha Xalq ta'limi vazirligi va uning tasarrufidagi Respublika ta'lim markazining biologiya o'quv fani bo'yicha IMK a'zolari hamda umumta'lim maktablarining amaliyotchi o'qituvchilari tomonidan "Milliy o'quv dasturi" ishlab chiqildi.

Ma'lumki, umumta'lim maktablarida biologiya o'quv fani sifatida 5-11- sinflarda o'qitiladi. Bu davr mobaynida biologiya o'quv fani uchun jami 442 soat vaqt ajratilgan. Amaldagi dasturlarda biologiya fanidan 5-11-sinflarda ham 442 soatni tashkil etib, jami 54 ta laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar uchun vaqt ajratilgan. Mazkur ko'rsatkich o'quv faniga ajratilgan mavzularning 12.21 % ini tashkil etgan (1-jadval).

Milliy o'quv dasturi 7-11-sinflar mavzularini o'zida aks ettirib, jami 340 soat vaqt ajratilgan bo'lib, shundan 164 ta laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar o'tkazilish rejalashtirilgan bu esa o'quv faniga ajratilgan mavzularning 48.2 % ini tashkil etadi. Xorijiy tajribalar o'rganilib tahlil qilish natijasida 5-6- sinf botanika darsliklari "Tabiiy fanlar" tarkibiga o'tkazildi.

1-jadval

Dastur va sinflar	Umumiy soat	Laboratoriya	Amaliy	Jami	% da
Amaldagi dasturda 5-11- sinflarda	442	39	15	54	12.21
Milliy o'quv dasturida 7-11- sinflarda	340	30	134	164	48.2

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i U.N.Tashkenbayevning bevosita rahbarligida Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari mutasaddi hodimlari bilan hamkorlik faoliyati asosida fanlar bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilardan iborat ishchi guruhlar tashkil etildi va mamlakatimizda birinchi marta "Uzluksiz ta'lim milliy dasturi" ishlab chiqildi hamda tajriba – sinov ishlari amalga oshirilmoqda [4].

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quv fan dasturlarining uzviyligi to'liq ta'minlanma-ganligi sababli ta'lim sifati va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Olib borilgan izlanishlar natijasida mavzularning takrorlanishi, ayrim mavzularga haddan ziyod ko'p soatning



ajratilganligi, fan mazmuni deyarli nazariy ma'lumotlarga asoslanganligi hamda xalqaro tadqiqotlar singdirilmaganligi kabi muammolar aniqlandi. Xususan, biologiya fanidan mavjud o'quv dasturlari qiyosiy jadvallar asosida tahlil qilindi. Birlamchi tahlillarga ko'ra, takrorlangan mavzular 16 ta, uzviyligi ta'minlanmagan mavzular 18 ta, nazariy mashg'ulot turidan amaliy mashg'ulot turiga o'tkazilishi taklif etilgan mavzular 9 ta, qisqartirilishi talab etiladigan mavzular 1 ta, yangilanishi zarur mavzular 44 ta, xalqaro tadqiqotlar bo'yicha kiritilishi lozim bo'lgan mavzular soni 54 ta, boshqa ta'lim turiga o'tkaziladigan mavzular soni 35 ta ekanligi aniqlandi va o'quv dasturlari qayta tahlil qilinib to'g'rilandi.

Hozirga shiddat bilan rivojlanayotgan davrda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, fan asoslarining mazmun - mohiyatini to'liq o'zlashtirish jarayonida umumta'lim maktablarda biologiya fanini mazmun jihatdan yangicha o'qitish (STEAM – ta'lim (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – san'at, Mathematics – matematika) zaruriyat hisoblanadi.

STEAM ta'limining o'ziga xosligi, o'quvchilarning amaliy mashg'ulotlar yordamida o'zlashtirgan ilmiy-texnik bilimlarni real hayotga qo'llay olishi tushuniladi. Shu sababli, bugungi kunda STEAM yondashuv va xalqaro baholash dasturlari yuzasidan trenerlarni tayyorlash bo'yicha seminar-trening va mahorat darslari tashkil etib kelmoqda.

STEAM yondashuv, o'quvchilarni kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo'ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois, biologiya fani kimyo, fizika, matematika, geografiya fanlari bilan integratsiya qilgan holda o'qitilishi maqsadga muvofiq sanaladi [5].

Olib borilayotgan islohatlarning amaliy ifodasi sifatida ayni vaqtda mamlakatimiz ta'lim tizimida 1-6-sinflarda spiralsimon interatsiyaga asoslangan "Tabiiy fanlar" nomdagi darsliklarning yangi avlodini yaratish bo'yicha ishlar samarali amalga oshirilmoqda. Spiralsimon o'qitish bo'yicha 1-2- sinflarning darsliklari nashrdan chiqdi va amaliyotga joriy etildi. Bunda biologiya, fizika, kimyo, geografiya, matematika va texnologiya o'quv fanlarining integratsiyasi aks ettirilgan.

Mamlakatimizda oliy ta'lim sohasidagi dastlabki islohotlar, avvalo, qamrovni oshirish, institut va universitetlarning moliyaviy holatini yaxshilash, professor-o'qituvchilarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratildi. Jumladan, oxirgi 3 yilda oliy ta'lim muassasalari soni 65 tadan 117 taga yetdi, qabul o'rinlari 66 mingtadan 181 mingtaga oshdi. Ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda. Xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari doirasida 64 ta yangi kasb bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Professor-o'qituvchilarning maoshi



oʻrtacha 3,5 barobarga oshirildi. Bu esa taʼlim sohasida faoliyat koʻrsatayotgan professor - oʻqituvchilarga hukumatimiz tomonidan keng qamrovdagi islohotlarning yaqqol ifodasi hisoblanadi. Yuqoridagi yaratilgan shart-sharoitlar yaratilgan boʻlishiga qaramay taʼlim sifati borasida oʻzgarishlar hali keskin darajada oshmaganligini taʼkidlash joiz. Shu bois Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 16 iyun kuni oliy taʼlim tizimidagi ustuvor vazifalarga bagʻishlangan videoselektor yigʻilishida quyidagi jihatlariga eʼtibor qaratildi:

bugungi kundagi 815 ta yoʻnalishning 55 % i mehnat bozori talablariga javob bermasligi; oliy taʼlim muassasalari 2 mingga yaqin fanlar boʻyicha darsliklar bilan taʼminlanmaganligi; oʻquv dasturlari bundan 40 yil oldingi fan va yoʻnalishlar asosida tuzilganligi; tizimda korrupsiya holatlari juda koʻp ekanligi qayd etildi.

Shu sababli davlatimiz rahbari sohadagi 4 ta ustuvor vazifani aniq koʻrsatib oʻtdi:

Birinchisi – oliy taʼlim muassasalari boshqaruv kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirish.

Ikkinchisi – oʻquv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini taʼminlash va talabning oʻz ustida ishlashi uchun muhit yaratish.

Uchinchisi – oliy taʼlim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish.

Toʻrtinchisi – professor-oʻqituvchilar va talabalar uchun qogʻozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirish[4].

Mazkur vazifalarni samarali bajarish uchun oliy taʼlim muassasalariga akademik va tashkiliy-boshqaruv boʻyicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilishi taʼkidlandi. Bundan buyon, oʻquv rejasi va oʻquv adabiyotlar, fan dasturlarini joriy etish, professor-oʻqituvchilarning oʻquv yuklamasi hamda taʼlim shakllarini belgilashni oliy taʼlim muassasasi kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Shuningdek, har bir kafedraning faoliyati uning ilmiy salohiyati va yoshlarni seleksiya asosida ilmiy faoliyatga jalb etish koʻrsatkichlariga qarab baholanadi. Har bir kafedraning bir nafardan yosh olimini xorijga stajirovkaga yuborish yoʻliga qoʻyilmoqda. Shu bilan birga, oliy taʼlim muassasalari kafedralar huzurida ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etishi, ularni oʻquv-laboratoriya jihozlari va zarur texnika bilan taʼminlash ustuvor vazifalardan sanaladi.

Darhaqiqat, biologiya, fizika, geologiya, kimyo kabi fanlar uchun zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan taʼminlangan audiotoriyalarning boʻlishi muhim hisoblanadi. Davlat taʼlim standartlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, horijiy tajribalarga asoslangan oʻquv adabiyotlar bilan taʼminlash - yangi avlod kadrlarini tayyorlash, taʼlim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari boʻlishlari uchun ularda zarur bilim, koʻnikma malaka va kompetensiyalarni shakllantirish jarayonidagi ilk tashlangan qadamlardan sanaladi. Shu bilan bir qatorda, oʻquv jarayonlarini kredit-modul tizimiga



o'tkazish muhim islohotlardan biri ekanligini ta'kidlash joizdir. Chunki kredit-modul tizimi o'qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Bu borada hukumatimiz tomonidan yetarlicha huquqiy asos yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko'ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 % i 2030 yilgacha bosqichma - bosqich kredit - modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Masalan, 2020-2021 o'quv yilining o'zida mamlakatimiz-dagi 33 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari kredit-modul tizimiga o'tishi taminlangan [4].

Ma'lumki, kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash, talabalar bilimni reyting asosida baholash. Kredit – bu, olingan bilimni qachon yoki qaerda olinganidan qat'iy nazar, hisobini chiqarish va tan olish demak. Modul – bu alohida individual o'quv fani. O'zida bilimga egalik qilish va kasbiy jihatlarini qamrab olgan bo'lib, ta'lim oluvchilarning o'quv dasturini o'zlashtirish natijasida shakllangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanishni nazarda tutadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim sohasidagi keng qamrovdagi yaratilgan shart-sharoitlar aksariyat davlatlarda yaratilmagan. Shunday ekan, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat ko'rsatadigan har bir pedagog xodim uzluksiz ravishda kasbiy kompetentligini oshirib borishlari lozim. Har bir professor-o'qituvchi o'zida "o'qituvchi – umri davomida o'quvchi" tamoyilini shakllantirishi va yangi axborotlarni uzluksiz ravishda o'ganish, tahlil qilishi hamda qayta ishlab, o'quvchilar e'tiboriga havola etishi muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni. -Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi, 06/19/5712/3034-son. 29.04. 2019 y.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4805-son qarori. <https://lex.uz/>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori. <https://lex.uz/>

4. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/>

5. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi: STEAM fanlari. <http://www.kkmetodika.uz/qq/news/show/224>



IQTISODIY BILIMLARNI MATEMATIKA FANI BILAN UZVIYLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Z.DADABOYEVA,

Andijon DU tayanch doktoranti

Maqola iqtisodiy bilim asoslarini o'rganish jarayonida matematika fanlaridan foydalanish va o'quv fanlari orasidagi uzviylikni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan.

Tayanch so'zlar: *iqtisodiy bilim, matematika, o'quv jarayoni, ta'lim tizimi, matematik usullar, kasb-xunar kollejlari, matematika va iqtisodiyotning fanlararo aloqadorligi, matematika va iqtisodiy ta'lim mazmuni.*

Предмет зоология согласно школьной программе изучается в 7 классе. Программу зоологии можно условно разделить на зоологию беспозвоночных животных и зоологию хордовых, или позвоночных, животных. Изучение беспозвоночных животных предусмотрено в 1 и 2 четвертях 7 класса, а хордовые животные изучаются в 3 и 4 четвертях. В университете курс зоологии состоит из двух частей: зоологии беспозвоночных и зоологии позвоночных. Курс зоологии беспозвоночных преподаётся на 1 и 2 семестрах в 1 курсе, а зоология позвоночных изучается на 3 и 4 семестрах второго курса.

При изучении содержания данных учебников и сравнения школьного курса зоологии с программой высшего учебного заведения, определяется взаимосвязь этих программ. Изучение зоологии начинается со знакомства с наукой зоология, с её целями, задачами, даётся обзор общей организации живых организмов. Затем переходят непосредственно к изучению живых организмов в соответствии с их классификацией, даётся общая характеристика, особенности строения, размножения, развития, изучается их экология, значение и филогения.

При этом, если в школьной программе даются базовые знания об особенностях строения и жизнедеятельности живых организмов, и изучаются только определённые типичные их представители, то в высшем учебном заведении осуществляется подробное изучение различных представителей



животного мира, даётся полная классификация животных, рассматриваются такие таксонометрические единицы, как подтипы, надклассы, подклассы, надотряды, подотряды и т.д.

Изучение простейших в школьной программе ограничивается изучением самых простых и типичных их представителей – амёбы, эвглены и инфузории-туфельки. В высшем учебном заведении студенты знакомятся со всеми характерными формами этих организмов с более сложной организацией и жизненными процессами. Студенты знакомятся с животными жгутиконосцами, с апикомплексами, споровиками и другими многочисленными представителями простейших, опираясь на базовые знания школьной программы. Если школьники знакомятся только с одним типом размножения простейших животных – простым делением, то студенты узнают, что наряду с простым делением простейшим свойственно размножение способом шизогонии, для них характерны половые формы размножения и т.д.

При изучении остальных разделов также осуществляется расширение материала и углублённое её изучение на основе базовых знаний, полученных в школе с сохранением последовательности изучаемого материала.

При формировании практических навыков и навыков самостоятельного образования также осуществляется их формирование в школе и усовершенствование в ВУЗе.

Большое внимание уделяется самостоятельной работе учащихся и студентов. В учебниках даются проверочные тесты, используя которые учащие и студенты могут самостоятельно проверить свои знания. При этом в школе предусмотрены тесты 1-го уровня сложности, а в учебниках для ВУЗа даны уже более сложные тесты 2-го и 3-го уровней. Формы самостоятельного контроля и работы учащихся и студентов также отличаются. Если в школе формой самостоятельной работы является подготовка докладов, тестов и презентаций на основе анализа школьного материала, то студенты самостоятельно ищут материал из различных печатных и электронных источников, и форма предоставления материала также отличается от школьной. Студенты готовят видеоролики, видеоуроки и презентации с использованием 3D - эффектов, пишут курсовые работы по заранее выбранным и утверждённым темам, пишут дипломные проекты.

Таким образом, на основе анализа школьной программы и программы высшего учебного заведения по зоологии можно сделать вывод о суще-



ствовании тесной взаимосвязи образовательного процесса, постепенном его усложнении с учётом базовых знаний и полном соответствии принципам непрерывности и преемственности в системе образования, что является одной из важных задач в системе непрерывного образования.

Литература:

1. Развитие непрерывного образования. Материалы III Всероссийской научно-практической конференции с международным участием, посвященной 5-летию Института дополнительного образования и повышения квалификации Красноярск 25-26 марта 2010
2. Непрерывное образование: большие возможности и многообещающие перспективы. Сабина Алимова Образование 17 марта 2021
3. Указ Президента Республики Узбекистан Об утверждении концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года.



BIOLOGIYADAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARIDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHDA AXBOROT RESURSLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

M.N.IBODOVA,

NavDPI "Biologiya" kafedrası
dotsenti v.b. p.f.f.d (PhD)

Ushbu maqolada talabalarning laboratoriya mashg'ulotlari mustaqil ishlari tashkil etishda innovatsion texnologiyalariga muvofiqlashtirilgan intellektual ta'lim tizimi imkoniyatlaridan keng miqyosda foydalanish kabi dolzarb muammolariga doir fikrlar bayon qilingan. Mazkur laboratoriya mashg'ulotlarida mustaqil ishlari tashkil etish bevosita biologiya fanlari darslarida foydalanish asosida muhokama etilgan.

Tayanch so'z va iboralar: didaktik, mikropreparat, morfologik, multimedia, gipermatn, gipermedial, intellektual, motivatsion, emotsional, ijodiy fikrlash.

This article discusses topical issues in the system of continuous education, such as the widespread use of the capabilities of the intellectual education system, adapted to innovative technologies, methods for organizing student laboratory classes. The organization of these laboratory classes was discussed based on their use in the lessons of biological sciences.

Key words: didactic, micropreparation, morphological, multimedia, hypertext, hypermedial, intellectual, motivational, emotional, creative thinking.

В данной статье рассматриваются актуальные вопросы в системе непрерывного образования, такие как широкое использование возможностей интеллектуальной системы образования, адаптированной к инновационным технологиям, методы организации лабораторных занятий студентов. Обсуждалась организация этих лабораторных занятий исходя из их использования на уроках биологических наук.

Ключевые слова: дидактический, микропрепарат, морфологический, мультимедиа, гипертекст, гипермедиа, интеллектуальное, мотивационное, эмоциональное, творческое мышление.

Laboratoriya mashg'ulotlarining mazmuni mashg'ulotlar davomida amalga oshiriladigan maqsad va vazifalar, xususan sistematika, morfologik va anatomik tuzilishiga oid ma'lumotlarni bilish bilan belgilanadi. Mashg'ulotlar davomida o'quvchilar ma'ruza darslarida o'zlashtirgan nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, amaliy ko'nikma va malakaga ega bo'ladi.

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi talabaning mashg'ulot davomida bajaradigan individual ishini natijasiga bog'liq holda birinchi mashg'ulotdan oqib kelgan belgilanishi va uni barcha mashg'ulotlarda tatbiq etish lozim. Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshirilishini doimo nazorat qilib borilishi zarur.



Laboratoriya mashg'ulotlarida quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- laboratoriya mashg'ulotlarini rejalashtirish va o'tkazish;
- laboratoriya mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- talabalarda fan va ishlab chiqarish bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga qiziqish uyg'otish;
- talabaga natijani mustaqil qo'lga kiritish imkoniyatini yaratish;
- talabani nazariy jihatdan tayyorlash.

Laboratoriya mashg'ulotlarida mavzu mazmuniga bog'liq holda ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar belgilab olinadi. Mashg'ulotlar ning ta'limiy maqsadi talabaning mashg'ulot davomida mavzuga muvofiq egallagan bilim, ko'nikma va malakalari bilan belgilanadi.

Biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlarining tarbiyaviy maqsadi talabalarda umuminsoniy fazilatlar: mehnatsevarlik, vatanparvarlik, o'z yurti tabiati, hayvonot dunyosiga nisbatan mehr muxabbat va mehr – shavqat hissini uyg'otishga yo'naltirilgan bo'ladi. Psixologlarning fikricha, har qanday shaxsiy fazilatlarni bitta dars davomida yuzaga chiqarish juda qiyin masala. Shu sababdan kadrlar tayyorlash borasidagi davlatimiz siyosati ham insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali barkamol shaxs – fuqaroni shakllantirishga qaratilgan.

Laboratoriya mashg'ulotlarining tarbiyaviy maqsadi ta'limiy maqsadlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, talabalarga ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik, estetik, ekologik, iqtisodiy, mehnat, gigienik, baynalminal tarbiya berishdan iborat. Mashg'ulotning tarbiyaviy maqsadi mavzu mazmunidan kelib chiqadi. Masalan, lansetnikning tuzilishini o'rganishning didaktik maqsadi talabalarda barcha xordalilarning kelib chiqishining umumiyliги to'g'risidagi dunyoqarashni shakllantirish bo'lsa, mavzuning tarbiyaviy maqsadi lansetnik tuzilishini o'rganish davomida ularda mehnat, estetik, gigienik, ekologik tarbiya berishdan iborat.

Laboratoriya mashg'ulotlarida rivojlantiruvchi maqsad talabalarning individual miqdoriy va sifatiy o'zgarishlarini rejalashtirishni nazarda tutadi. Rivojlantiruvchi maqsad talaba shaxsining individual xususiyatlaridan kelib chiqib, uning intellektual, motivatsion, emotsional, o'z-o'zini boshqarish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, irodasini chiniqtirish kabi sifat o'zgarishlarni nazarda tutadi. Rivojlantiruvchi maqsadlarni quyidagicha ifodalash mumkin:

- ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- aqliy sifatlar (mustaqillik, moslanuvchanlik, tadbirkorlik)ni shakllantirish;
- bilish jarayonlari (diqqat, tasavvur, xotira)ni rivojlantirish;
- fikrlash ko'nikmalari (tahlil qilish, sintez, aniqlashtirish, tizimlashtirish)ni rivojlantirish;



– bilish ko‘nikmalari (fikrlab savol berish, muammoni shakllantirish, gipotezalarni ilgari surish, xulosa yasash, bilimlarni qo‘llash)ni shakllantirish;

– o‘quv mehnati ko‘nikma va malakalari (darslik bilan ishlash, ma’lumotnomadan kerakli materialni topish, reja tuzish, matndagi asosiy fikrni topish, qo‘yilgan savollarga javob berish)ni shakllantirish;

– bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalari (o‘z faoliyatini rejalashtirish, asbob va jihozlarni qo‘llash, o‘z faoliyatini nazorat qilish va baholash, hisoblash va h. k.)ni rivojlantirish. Laboratoriya mashg‘ulotlari ta’lim muassasalarida biologiya fanlarini o‘qitishning asosini tashkil etadi. O‘quv jarayoniga laboratoriya mashg‘ulotlarini faol tashkil etishga yordam beradigan, o‘quvchini faol bilim olishini rag‘batlantiradigan texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Biologiya fanining o‘quv dasturiga laboratoriya mashg‘ulotlarini kiritishdan maqsad o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, ularni amaliyotga qo‘llash orqali talabalarning amaliy va o‘quv ko‘nikmalarini tarkib toptirishdan iborat. Laboratoriya mashg‘ulotlari o‘quv jarayoni shakllaridan biri sifatida ta’limni tarbiya bilan nazariyani amaliyot bilan bog‘lash funksiyalarini bajaradi. Laboratoriya mashg‘ulotlarida talabalar mustaqil ish bajaradi yoki tajriba o‘tkazadi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida laboratoriya ishlari o‘quvchiga nazariy bilimlarni qo‘llash mexanizmini chuqur va ko‘rgazmali o‘rganish imkonini beradi. Laboratoriya mashg‘ulotlari talabada tadqiqot o‘tkazish ko‘nikmalarini shakllantiradi, fan va texnikaga ijodiy yondashishni ta’minlaydi, tajribaning umumiy metodikasini egallashga imkon beradi.

Biologiyadan laboratoriya mashg‘ulotlari oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar ularning tashkiliy shakllari, metodlari, vositalarini o‘zaro bog‘liq holda joriy etishni taqozo etadi. Laboratoriya mashg‘ulotlarining samarasi ham qo‘yilgan maqsadning aniqligi, vazifalarni to‘g‘ri va izchil belgilanishi, o‘qitish vositalari resursini to‘g‘ri tanlanishi bilan bog‘liq.

O‘zlashtirish lozim bo‘lgan bilimlar hajmi tobora ortib borayotgan hozirgi davr o‘quvchilarni faol mustaqil bilim olishga imkon beradigan, ularni vaqtini tejab, mehnat samarasini oshiradigan vositalar o‘quv jarayoniga kiritilmagan.

Talabalarning mustaqil faol mehnatiga asoslangan laboratoriya mashg‘ulotlarida tabiiy biologik ob‘ektlar, ya’ni tirik yoki fiksatsiya qilingan hayvonlarning kolleksiyalari, quruq va ho‘l preparatlari, mikropreparatlari beqiyos katta ahamiyatga ega. Tabiiy ob‘ektlarni kuzatish va tajribalar orqali o‘rganish talabalarda motivatsiyani kuchaytiradi, shaxsiy emotsional holatini faollashtiradi, ularning turli muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etishlariga imkon yaratadi. O‘rganiladigan biologik ob‘ektga oid muammoli vaziyatlarni shakllantirish va mustaqil hal etish talabalarining tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga va ularni kasbga yo‘naltirishga yordam beradi.



Oliy ta'limda biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni, maqsadi va vazifalari o'zaro mushtarak holda talabalarning individual ishlarini faol tashkil etishga asoslanmog'i, mashg'ulotlar talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish, xolis baholay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilmog'i lozim. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun laboratoriya mashg'ulotlarida har bir talabaning mustaqil ishlashini ta'minlaydigan, ular faoliyati va bilimini uzluksiz o'z-o'zini nazorat qilib borishga imkon beradigan, talabani vaqtini tejaydigan, mashg'ulot samarasini oshiradigan o'quv-metodik ta'minotni yaratish talab etiladi.

Biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda intellektual ta'lim tizimining imkoniyatlari amaliy jihatdan cheklanmagan. Bilimlarni mustahkamlash uchun talabalar bilan suhbat tashkil etish, ularning o'z bilimlarini baholashi va uni etalon bilan taqqoslash, o'quvchilar faoliyatining tahlili, so'zlab berish, to'plangan ma'lumotlarni minglab o'quvchilarga yetkazish (ommaviy ta'lim), gipermatn ko'rinishidagi mashg'ulotlarni tashkil etish, ma'lumotlarning ta'minot manbaini belgilash va boshqalar – bularning hammasi intellektual ta'lim vositalari bilan bog'liq muammolarni hal etadi.

Gipermatnli yondashuvning oddiy matndan farqi laboratoriya mashg'uloti elementlarini chiziqli ketma – ketlikda ko'p darajali aloqalar asosida taqdim etilishidan iborat. Ta'lim jarayonini loyihalashda axborotlarni multimedia va gipermatn asosida birlashtirilishi ta'limning yangi turi – gipermedial ta'limni shakllanishiga olib keladi.

Biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlarida ko'rgazmali vosita sifatida o'quv matnlari asosiy o'rinni egallaydi. Shu bois, talabalarga uyga vazifa sifatida keyingi mashg'ulot mazmuniga oid bilimlarni o'quv matnlari asosida o'zlashtirib kelish topshiriladi. O'quv matnlari ayni vaqtda ta'limning yangi vositalari (elektron darsliklar, videofilmlar, audio-darslar, audio va vide okasetalar, videodisk va boshqa axborot texnologiyalari) orqali ham ifodalanishi mumkin.

Darslik va o'quv qo'llanmalar laboratoriya mashg'ulotini tashkil etishning didaktik vositalari bo'lib, talabalarning mustaqil bilim olishi uchun asosiy manba hisoblanadi. Laboratoriya mashg'ulotiga tayyorlanish jarayonida talabalar darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ishlashlari uchun alohida topshiriqlar belgilanadi. O'quv adabiyotlari darslikdan kelgusi laboratoriya mashg'ulotiga tayyorlanib kelish uchun o'quvchilarga vazifalar beriladi. O'quv adabiyotlari laboratoriya mashg'uloti davomida mavzu bo'yicha materiallar bilan tanishish uchun zarur bo'ladi.

Biologiya fanidan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda axborot resurslaridan foydalanishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lib, elektron ta'lim muhitida o'z-o'zini rivojlantirish, faoliyat natijalarini to'g'ri tashhishtash, baholash, ularni to'g'rilash imkonini beradi. Shunday qilib biologiyadan laboratoriya



mashg'ulotlarining maqsadlarini belgilashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- maqsad aniq belgilangan bo'lishi;
- laboratoriya mashg'uloti sharoitini hisobga olgan holda maqsadga aniq erishishni ta'minlanishi;
- maqsad o'qituvchi imkoniyatlari, talabalarning bilimi, ko'nikmalari, ya'ni tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda real qo'yilishi.

Laboratoriya mashg'ulotlarining samarali tashkil etishda o'ziga xos didaktik va metodik jihatlariga e'tibor beriladi. Pedagogikaga oid adabiyotlarga asosan mashg'ulotlarni o'tkazishning quyidagi didaktik tamoyillarini belgilash mumkin:

- laboratoriya mashg'ulotlarini rejalashtirish va o'tkazish;
- laboratoriya mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilash;
- talabalarda nazariy va amaliy chuqur bilim olishga qiziqish uyg'otish;
- natijani talabaning o'zi mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabalarni nazariy jihatdan tayyorlash;
- mashg'ulotlar mavzu bo'yicha talabalar bilimlarni mustahkamlash bilan birga ularni tarbiyalash manbai bo'lishi.

Biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ishlab chiqilgan elektron resursda, dunyodagi fan sohasiga oid yangiliklar bilan tanishish, ularga oid turli ko'rgazmali tasvirlarni ko'rish, so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan jarayonlarni izohlash, mustaqil ta'lim va tahsil olish imkoniyatlarini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. "O'zbekiston", 2017.
2. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Moliya-iqtisod" nashriyoti, 2009.
3. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013



O'QUVCHI-TALABALARDA VATANPARVARLIK HISSINI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVİY MEROSNING O'RNI

E. Y. RO'ZIMATOV,

O'zMU "Pedagogika va umumiy psixologiya"
kafedrasni katta o'qituvchisi

Maqolada talabalarda talabalarda vatanparvarlik hissin shakllantirishda ma'naviy merosning o'rni haqida fikr bayon etilgan bo'lib, unda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga dahldorlik, fidoyilik hissin qaror toptirish va rivojlantirish, turli mafkuraviy tahdidlardan asrashda vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyati xususida fikr yuritiladi.

Tayanch tushunchalar: Vatan, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar; sodiqlik, dahldorlik, fidoyilik, rivojlantirish, indikator; baholash, kvalimetrik tahlil qilish.

В статье освещены вопросы о роли духовных ценностей в формировании патриотизма у студентов. В ней освещаются вопросы воспитания молодежи в духе уважения к национальным и общечеловеческим ценностям, любви и верности, причастности к судьбе Родины, формирование и развитие чувств преданности к идеям независимости, национального самосознания, а также значение патриотического воспитания в защите от различных идеологических угроз.

Ключевые слова: Родина, патриотизм, национальные и общечеловеческие ценности, верность, преданность, индикатор, развитие, модель, оценка, анализ.

The article reveals the essence of the indicators of qualimetric measurement of indicators of the level of patriotism of students. It highlights the issues of educating young people in the spirit of respect for national and universal values, love and loyalty, involvement in the fate of the Motherland, the formation and development of feelings of commitment to the ideas of independence, national identity, as well as the importance of patriotic education in protecting against various ideological threats.

Key concepts: Motherland, patriotism, national and universal values, loyalty, dedication, dedication, development, indicators, evaluation, analysis.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlardan ko'zlangan pirovard maqsadga erishishda ta'lim-tarbiya sohasi muhim ahamiyat kasb etib, bu jarayonda kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismi bo'lgan oliy ta'lim tizimi faoliyati samaradorligini zamonaviy talablar asosida oshirib borish vazifasini quyadi.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin tarixan qisqa vaqt ichida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarda katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Jamiyat hayotining barcha jabhalarida asta-sekin amalga



oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, ma'naviy hayot sohasida yaqqol namoyon bo'la boshladi. Bunday yangilanishlardan biri "Yangi O'zbekiston Yangicha dunyoqarash" shiori ostida amalga oshirilmoqda.

"Vujudimizda, qonimizda ajdodlarimizdan meros buyuk qudrat jo'sh urayotgan ekan, biz ezgu orzu va maqsadimiz bo'lmish yangi O'zbekistonni albatta bunyod etamiz. O'zbekiston har tomonlama obod va farovon, erkin demokratik mamlakatga aylanadi" deb takidlaydi prezident Shavkat Miromonovich Mirzi'ev o'z ma'ruzasida[1].

Ma'lumki, xalq pedagogikasida, uning prinsiplari va qarashlarida el-yurtga sadoqatlik xalq hayotida ko'p martalab sinalgan va isbotlangan, ko'p asrlik tarbiyaviy tajriba shakllangan.

Shuning uchun milliy tarbiyaviy an'anada ma'naviy-axloqiy nuqtai nazardan ko'p qiymatli, barqaror, g'oyat foydali fikrlar, boy, ta'sirchan tarbiya vositalari mavjud.

Har qanday jamiyatning rivojlanishi uining kelajagi bo'lgan yosh avlodning qanday ta'lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'liqdir. Demak, ma'naviy sohadagi asosiy vazifa yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'usini kuchaytirish, imon, e'tiqod, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik singari xislatlarni shakllantirish zahirida komil insonni, har taraflama sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iborat.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog'liq bir qator yangi va muhim vazifalarni belgilab berganini alohida qayd etish joiz.

Jamiyatimizning muhim bug'ini hisoblangan talabalarda vatanparvarlik hissini shakllantirish hozirgi "Madaniy globallashtirish jarayoni" davrida mislsiz ahamiyat kasb etadi. Milliy tuyg'u kishining milliy voqelikdagi barcha narsa va hodisalarga, milliy jarayonlarga, ona-Tabiat va zaminga, shuningdek, xalqning tarixi va ma'naviy merosiga milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabati shaklida namoyon bo'lib, milliy ma'naviy hayotida katta ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik hissi ta'sirchanligi, ayniqsa, har bir xalqning milliy xususiyatlari orqali o'z ifodasini topadi.

Vatan, Vatanni sevishtirish haqida Abdulla Avloniy shunday deydi: "Vatan. Har bir kishining tug'ulub o'sgan shahar va mamlakati shul kishining Vatani deyilur. Har kim tug'ulgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu Vatan hissi-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan - uyuidan ayrilsa, o'z yeridagi



kabi rohat-farog'atda yashamas, har vaqt dilining bir go'shasida o'z vatanining muhabbati turar"[2]

Vatan tuyg'usi bo'lgan kishidagina vatanparvarlik hissi jo'sh uradi.

Vataparvarlik deganda yana quyidagilarni anglashimiz joiz:

- o'z xalqini, o'tmishini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish;
- qadimiy obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlarimiz yaratgan moddiy va ma'naviy meroslarni ko'z qorachig'iday asrash va avlodlarga taqdim etish;
- xalqimizning, ajdodlarimizning go'zal va serma'no urf-odatları, rasm-rusumlari va udumlarini qadrlay bilish, ularni davom ettirish;
- ajoyib vatandoshlar - ajdodlar nomi bilan, ularning ulug' ishlari, ijodlari bilan faxrlanish, ularning ishlarini davom ettirish, ularga munosib voris bo'lish;
- bu aziz va muqaddas Vatanimizda yuksak e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo'lish kabi xislatlarni shakllantirish zamirida, barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iborat.

Milliy qadriyatlarimizdan eng oliysi hisoblangan vatan hissini yosh avlod ongida shakllantirishdek yuksak va mashaqqatli vazifani bajarishga bel bog'lash biz yashab turgan davrning eng muhim an'anasiga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ma'lumki, tariximizda ajdodlarimiz milliy an'analimizga hurmat, Yurtga sadoqat, ilm olish orqali dunyoni zabt etish mumkinligi borasida ko'plab asarlar yozib qoldirganlar.

Shulardan biri buyuk mutafakkir Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida vatanparvarlik va qon-qardoshlik tuyg'usi, do'stlik va hamkorlik, poklik, ilm olishga intilish, adolat kabi tushunchalar xususida o'gitlar, pand-nasihatlar o'rin egallagan. Ushbu asarning qo'lyozmasi Istanbulda Fotih kutubxonasining Ali Amiriy fondida saqlanadi. Bu asar hozirgacha turk, nemis, jumladan, o'zbek tiliga Solih Mutallibov tomonidan 1960-1963 yillarda tarjima qilingan. Ushbu asarning tahlili yuzasidan A. Fitrat, N.M. Mallaev, A. Qayumovlar ham shug'ullanganlar.

Turkiy xalqlarning qadimgi manbalarida vatanparvarlik, insoniylik, sadoqat kabi insoniyatning oliy tuyg'ularini singdirish borasidagi pandnoma shaklidagi asarlar ko'p uchraydi. Jumladan, XI asrda yashab ijod etgan, o'z davrining buyuk donishmandi va mutafakkiri Yusuf Xos Hojib ijodiga to'xtalsak. Uning nodir asari "Qutadg'u bilig" o'sha davrdayoq keng omma o'rtasida katta obro' qozonadi. Asar 6500 baytdan va 13000 misradan iborat. Muallif o'z asarida tibbiyot, falakiyot, tarix, tabiiyot, jo'g'rofiya, riyoziyot, handasa, falsafa, ta'lim-tarbiya, fiqhga oid juda oqil fikrlarni bayon etib, o'zini qomusiy olim sifatida namoyon etadi. Asarda tarbiyada milliy an'analarga sodiqlik, urf-odatlariga hurmat kabi nasihatlar ham o'rin olgan.



Ajdodlarimiz merosini qunt bilan o‘rganar ekanmiz, donishmand darajasidagi mutafakkirlardan Kaykovusning ijodiga to‘xtalmasdan ilojimiz yo‘q. “Kaykovus 1020-1021 yillarda Tabariston (hozirgi Kaspiy dengizining janubidagi hudud)da Gilon qabilasida tug‘ilgan. Uning bizga qoldirgan betakror merosi “Qobusnoma” asari bo‘lib, muallif ushbu asarni umr davomida ko‘rgan-kechirganlarini tahlil qilib, pandnoma shaklida yozib qoldirgan”. Sho‘rolar davrida bu asar ham boshqa ajdodlarimiz ma‘naviy merosi singari birmuncha qarshiliklarga uchradi. “Qobusnoma” insonni, ayniqsa, yosh avlod ongida Vatanni sevish, ilmga muhabbat, xalqiga mehrini berish, yon-atrofidagilarga doim ko‘makda bo‘lish kabi hislatlarni kamol toptirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Uzoq asrlar milliy qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni tiklash, o‘tmish tariximizga haqqoniy baho berish, ulug‘ ajdodlarimizning jahon davlatchiligiga, ilmu faniga, madaniyati va san‘atiga qo‘shgan mislsiz hissalarini dunyoga ko‘rsatish, shu asosda yoshlarni milliy g‘oya va milliy mafkura ruhida tarbiyalashga kirishish mustaqillik sharofatidan.

Miliy mustaqillik xalqimizda, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh barkamol avlodimizda vatanparvarlik tuyg‘ularning qayta tiklanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek vatanparvarlik o‘zining mohiyati bilan yoshlar qalbida Vatanni anglash va ardoqlashning yana bir ko‘rinishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 46 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash to‘g‘risida”gi 140-son qarori
5. Abdullaeva Sh.A. Pedagogik diagnostika va korreksiya.-Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari,2012-B.-17-18.



TA'LIM TIZIMIDA MUSIQA PEDAGOGIKASINING HOZIRGI MUAMMOLARI

A.A.ABDUGAPPAROV,

O'zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti

Maqolada talabalarining kasbiy mahorat va ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy musiqiy va pedagogik muammolari ko'rib chiqiladi. Uzlüksiz ta'limning har bir bosqichida musiqachining kasbiy fazilatlarini oshirish vazifalari ham belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: *musiqa pedagogikasi, qobiliyat, malaka, rivojlanish, ma'naviyat, kasbiy malaka, tiklanish, an'analar, zamonaviylik, uzluksiz ta'lim, makom.*

The article deals with the main musical and pedagogical problems of the formation of professional skills and abilities of students. The tasks of improving the professional qualities of a musician at each stage of continuous education are also defined.

Key words: *music pedagogy, ability, skills, development, spirituality, professional competence, revival, traditions, modernity, continuous education, poppy.*

В статье рассматриваются основные музыкально-педагогические проблемы формирования профессиональных умений и навыков у обучаемых. Также определены задачи по совершенствованию профессиональных качеств музыканта на каждом этапе непрерывного образования.

Ключевые слова: *музыкальная педагогика, умение, навыки, развитие, духовность, профессиональная компетентность, возрождение, традиции, современность, непрерывное образование, маком.*

Musiqachining tarbiyasi murakkab ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uning mohiyati ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va o'zaro bog'liqligidir. Tarixiy jihatdan ko'p asrlar davomida shakllanib, bugungi kungacha saqlanib qolgan "ustoz-shogird" an'anasi o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q va bugungi kunda milliy va ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi sharoitida, ayniqsa, talab katta.

Bugungi kunda, birinchidan, o'qituvchi ma'naviy jihatdan so'g'lom va keng fikrlarni ishlab chiqarish o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlarini va millatimizning buyuk siymolari ijodiy merosini teran bilishlari kerak" [1, 269-b.].

Ta'limni keng axborotlashtirishning zamonaviy sharoitida musiqachining va pedagogik faoliyatning uzluksizligi innovatsion texnologiyalar bilan boyitilgan yangi mazmun kasb etmoqda. Shu bilan birga, o'qituvchilar milliy ma'naviy qadriyatlarni ulug'lash, o'qituvchilarning milliy ong va o'zlikni anglash, ona yurtga muhabbat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashi zarur.

O'zbek milliy musiqa merosi, maqom, baxshichilik san'ati, bastakor ijodi,



ijrochilik mahorati – bularning barchasi musiqa o‘qituvchisiga o‘quv materialini tanlashda keng qarash imkonini beradi. “O‘qituvchilar faoliyatini tahlil qilish, yutuq kamchiliklarinin aniqlash, ularni bartaraf etish yuzasidan aniq qarorga kelish, o‘z amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yillarini izlash kabilarni rivojlantirishni doimiy nazorat qilib borishni amalga oshirishi ularni mutaxassis sifatida shakllanish imkoniyatini beradi [2, 28-b.].

Musiqa pedagogikasida ta’lim mazmuniga tahliliy yondashish ko‘nikma va malakalarni o‘tkazish jarayonining yo‘nalishini aniqlashda juda muhim ahamiyatga ega, chunki u o‘quvchining qobiliyatini aniqlash va ularni sifat jihatidan rivojlantirish imkonini beradi. O‘quvchining xarakteri, temperamenti, tayyorgarlik darajasi, texnik bazasi xususiyatlariga ko‘ra, o‘qituvchi repertuar tanlashi, shu asosda o‘quvchining musiqiy qobiliyatining eng yaxshi fazilatlarini shakllantirishi mumkin.

O‘quvchini o‘quv materialiga qiziqitirish, uning ijodiy faoliyati tashabbusini uyg‘otish – bularning barchasi o‘qituvchidan iste’dod, mahorat, musiqa o‘qitishning innovatsion shakllarini tinimsiz izlanishni talab qiladi. Talabaning kasbiy fazilatlarini rivojlantirishda dolzarb muammolar quyidagilardan iborat: o‘quv faoliyatini o‘z-o‘zini tashkil etishni tarbiyalash; ijodiy fikrlashni shakllantirish; modulli o‘qitishni o‘z-o‘zini anglash omili sifatida tashkil etish. Ushbu muammolarni hal qilish ko‘nikma va kasbiy fazilatlarini egallashga qaratilgan maqsad va vazifalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishdan iborat. O‘quv rejalari va dasturlariga muvofiq o‘qitishning har bir yangi bosqichi talablarni oshirishni, o‘rganilayotgan materialni murakkablashtirishni, ishda katta mustaqillik va kompetentsiyani talab qiladi.

Talabalarning bilim doirasini kengaytirish masalasini hal qilishda ularni milliy musiqa madaniyatini chuqur o‘rganishga, musiqa san’atini badiiy ijod turli turlari kesimida tushunishga, falsafa, estetika, psixologiya, sotsiologiya, ayniqsa, yosh sozandalarning o‘zbek she’riyatini, uning janr va shakllarini bilishi, ruboiylar, g‘azallar, muxammaslar, mumtoz sharq she’riy miniatyura namunalarini tarannum eta olishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek adabiyoti, rassomlik, teatr san’ati haqidagi bilimlar sozandaning ijodiy tafakkuri, tasavvur va fantaziyasini boyitadi, uni xalq cholg‘u asboblari chalinib, qo‘shiqchilik, maqom san’atiga ilhomlantiradi, sahna san’atini chuqur ma’noga to‘ldiradi,



tinglovchilar idrokini majoziy ma'no bilan o'ziga tortadi va boyitadi. Ko'pincha sozandalar texnik maqsadlarga erishish, mohirlik bilan ijro etish, texnik jihatdan benuqson, ajoyib ijroga erishish bilan mashg'ul bo'ladi, lekin shu bilan birga, bunday ijro tinglovchilarga ta'sir qilmaydi, ularning qalbini to'ldirilmaydi. Bunda o'qituvchi o'quvchini musiqaning ma'naviy koordinatalariga, san'atdagi ifodalilik roliga qaratishi kerak. Bu masalani hal etishda o'quvchi bilan musiqaning obrazli mazmuni, ma'naviy qadriyatlari, hissiy boyligi haqida suhbatlar katta ahamiyatga ega.

Musiqani o'rganish – bu dunyoni bilishning ajoyib jarayoni. Bu o'rganuvchiga fikrlar, his-tuyg'ular, eshitish tasvirlari, obrazli assotsiatsiyalar va badiiy tasavvurlarning keng doirasini ochadi. Talabani musiqiy tafakkurini insonparvarlashtirish masalalarini hal etishda o'qituvchining malakasi, uning bilimdonligi, bilimining kengligi va chuqurligi, shaxsiy ijro mahorati, uslubiy bazasi, musiqa ta'limidagi metod va metodik yondashuvlarni egallashi muhim o'rin tutadi.

Musiqachining kasbiy kamolotida, uning g'oyaviy-badiiy yo'nalishini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasini, maqom san'atini o'rganish, uning falsafiy-hayotiy mohiyatini idrok etish alohida ahamiyatga ega. Maqomotning ma'naviy boyligi, shakllari xilma-xilligi haqida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi suhbatlar yosh sozandani musiqiy ijrochilik va pedagogikaning maqsad va vazifalari, kasbiy faoliyatining asosiy koordinatalari sari yo'naltiradi.

Boshqalarga saboq berish orqali o'qituvchi o'zini o'zi o'rganadi, tajriba, mahorat, vakolat va malakaga ega bo'ladi, agar ular yuqori malakali mutaxassislardan mukammal kasbiy ta'lim maktabini olgan bo'lsa, yosh o'qituvchilar ham bu tajribadan bahramand bo'ladilar. Musiqa ta'limining zamonaviy sharoitlari talabalarga o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi anglash, axborot texnologiyalari, turli dasturlar va shaxsiy usullardan foydalanish uchun keng istiqbollarni ochib beradi. Bilim va ko'nikmalarni egallashning bunday sharoitida professionallik darajasini, dunyoni to'g'ri anglash yo'lini his qiladigan yol ko'rsatuvchi sifatidagi o'qituvchining roli yanada ortadi.

Cheksiz ummonda behisob o'qitishning tashqi ko'rinishi jozibali uslublari mavjud bo'lib, milliy musiqa san'ati taqdiri, uning g'oyaviy-badiiy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini asrab-avaylash uchun mas'ul bo'lgan malakali ustoz-murabbiyning o'rni beqiyosdir.



Shu bois uzluksiz musiqiy ta'lim tizimi an'analar uzchilligi va ularning yangilanishida, yangi avlod musiqachilarni tarbiyalashda, tinglovchi ongiga yuksak ma'naviy g'oyalarni singdirishda, tinglovchilar ommasini mumtoz musiqa namunalaridan bahramand etishda, insonlarga zamonavuy jahon musiqa san'atining go'zal olamini ochib berishda muhim go'yaviy-badiiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Курбонова Г.А. Ўқитувчининг янги педагогик технологиялардан фойдаланиш маҳорати ва бурчи // Йилнома 2015. “Мусиқа санъати йўналишида профессионал кадрлар тайёрлаш: янги технологиялар ва ижрочилик омиллари”. – Тошкент: “Musiq” nashriёти, 2015. – Б. 264-270.

2. Маҳқамов У.И., Фармонов Ў.Н. Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчи маҳорати // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2020. – 3-son. – В. 25-28.



BOLAJAK MUSIQA OQITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

H.M. TURAYEVA,

*Angren shahar 46-maktab
musiqa fani o'qituvchisi*

Musiqa madaniyati darslarining O'zbekiston va dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida tutgan o'rni, yutuqlari, rivojlanishi, yosh avlod kamol topishida samarali ishlar olib borilmoqda. Dunyo tan olgan ta'lim metodlaridan unumli foydalanish har bir mamlakat ta'lim tizimiga salmoqli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu qatorda O'zbekistonda ham bu sohada olib borilayotgan islohotlar o'z samarasini bermokda.

Kalit so'zlar: ta'lim, san'at, musiqa, metod, xor, elementar musiqa, estetik tarbiya, musiqa o'qituvchisi, maktab.

Роль музыкальной культуры в системе образования Узбекистана и мира, ее достижения, развитие подрастающего поколения очень важны. Эффективное использование всемирно известных методов обучения оказывает значительное влияние на систему образования каждой страны и вносит в нее свой вклад. В то же время реформы в этой сфере в Узбекистане приносят свои плоды.

Ключевые слова: образование, искусство, музыка, метод, хор, элементарная музыка, эстетические воспитания, учитель музыки, школа.

The role of musical culture in the education system of Uzbekistan and the world, its achievements, the development of the younger generation is very important. The effective use of world-renowned teaching methods has a significant impact on the education system of each country and contributes to it. At the same time, reforms in this area are becoming effective in Uzbekistan.

Key words: education, art, music, method, chorus, elementary musical, aesthetic workouts, music teacher.

Musiqa ruhning axloqiy tomoniga ma'lum darajada ta'sir qilishi mumkin; va musiqa bunday xususiyatlarga ega bo'lgani uchun, shubhasiz, u yoshlar ta'limi fanlari qatoriga kiritilishi kerak.

Aristotel

Dunyoning juda ko'p mamlakatlarida bolalarga musiqa tarbiyasini o'rgatish, maktab hamda maktabdan tashqari tashkil topgan o'quv jarayoni, uning shakl va usullari shubhasiz katta qiziqish uyg'otmoda.

Xorijiy mamlakatlarda yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Davlat maktablari bilan birga shaxsiy maktablar, kollejlar va oliy ta'lim dargohlari mavjud. bulami Turli darajada estetik tarbiyani amalga oshirish yo'llari orqali o'qituvchilarga keng ijodiy erkinlik berilgan. O'qituvchi o'zining maktab sharoiti, imkoniyatlari va



o'quvchilarning bilim darajasiga qarab dasturga o'zgashtirishlar kiritishi mumkin. Buning sababi ta'lim jarayoniga kirib kelayotgan yoshlarni bilim daraja va saviyasi inobatga olib boriladi va tahlil qilinadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar san'at orqali hayotni o'rganish va unga shaxsiy munosabat bildirish, ijodiy munosabatda bo'lish malakalarini rivojlantiradi. Musiqa darslarida yuksak rivojlangan texnik vositalaridan keng foydalaniladi. Dunyo mamlakatlari kesimi misolida Yaponiya davlati umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida musiqa tarbiyasining o'ziga xos tizimi vujudga kelgan. Tarixga nazar solsak II - jahon urushidan so'ng ayrim davlatlar singari Yaponiya davlati ham tang ahvolga tushadi va Yapon hukumati shu ahvoldan chiqishda albatta ta'lim sohasiga katta e'tibor berishadi va bor kuch - mablag'larini ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratadilar. Yapon umumta'lim maktablarida asosan uchta fanga urg'u beriladi. Bular: Yapon tili, matematika va musiqa. Keyinchalik esa ularda bolalar bog'chasidan oliy ta'limgacha estetik tarbiya amalga oshiriladi. Estetik tarbiya integratsiya qilingan fan bo'lib unda musiqa, tasviriy san'at va mehnat uzviy bog'langan. Yapon musiqa ta'limida "Suzduki" tizimi mashhurdir. Uning tizimida musiqa tinglab idrok etish maqsadi ilgari surilgan. Bundan tashqari bolalar cholg'u asboblari kuy chalishlari muhim rol o'ynaydi. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarning onasi ham ishtirok etadi. Mashg'ulot mazmuni va maqsadidan ogoh bo'ladi va oilada o'z ovozi bilan shug'ullanadi. "Suzduki" metodida onalar musiqa ma'lumotiga ega bo'lishi shart emas. Oilada gramzapis, televideniye, kontsertlarda tinglangan asarlarni muhokama etadilar. Bunda bog'cha va oilaning hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Natijada 5-6 yoshli bolalar Betxoven sonatalarini chalishga erishadilar. Yuqori sinflarga ko'chgan sari estetik tarbiya ham bir predmed singari murakkablashib boradi. Yuqori sinflarda rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq san'ati taqlidchilari yetishadi. O'qituvchi-kadrlar tayyorlash ishi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ular oliy pedagogika va san'at oliyogohlarida tayyorlanadi.

Zoltan Kodayning «2000 yilga kelib har bir umumta'lim maktabini bitirgan o'smir notani erkin o'qiy oladi» – degan orzusi amalga oshdi. Vengriyada musiqiy tarbiya sohasida erishilgan asosiy yutuqlar zamonaviy venger musiqasining asoschilaridan biri, kompozitor, xalq og'zaki ijodi bilimdoni, musiqashunos, pedagog Zoltan Koday (1883-1967) nomi bilan bog'liqdir.

Bolalarning musiqiy tarbiya sohasidagi o'zining faol va sarmahsul faoliyatini Z.Koday 1920-yillardan boshladi. Z.Kodayning bolalar musiqiy tarbiya tizimi ommaviylik tamoyiliga asoslangan.

Vengriyada musiqiy tarbiya yuqori darajadadir. Bu mamlakatdagi umumta'lim maktab tizimining asosi sakkiz-yillik to'liqsiz o'rta maktab bo'lib, uni bitirgan o'quvchilar to'rt sinflik gimnaziya o'tadilar. Birinchi sinfda bolalar haftada ikki marta 0,5 soatdan, ikkinchi-yettinchi sinflarda esa haftada ikki soat «Musiqa» o'quv fani bilan shug'ullanadilar. Bundan tashqari har hafta ikki soat orkestr mashg'ulotlariga ajratiladi. Uchinchi-to'rtinchi sinflarda o'quvchilar musiqa adabiyoti bilan tanishish va birorta musiqa cholg'usini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Umumta'lim



maktablari orasida musiqa-qo'shiqchilik to'liqsiz o'rta maktablari, ya'ni musiqani chuqur o'rganishga qaratilgan umumta'lim maktablari keng joriy etilgan. Ularda birinchi-to'rtinchi sinf o'quvchilari haftada olti soat, beshinchi-yettinchi sinflarda esa to'rt soat musiqa va ikki soat xor mashg'ulotlari bilan shug'ullanadilar. Maktablarda shuningdek, fortepiano, skripka, puflama musiqa cholg'ulari sinflari mavjud. Bunday maktablardagi sinflarda o'quvchilar soni umumta'lim maktab sinfidagi bolalar soniga nisbatan kamroq, ya'ni 26 o'quvchidan ortmaydi. Bundan tashqari, ularda umumta'lim yo'nalishdagi o'quv fanlarining soni ham barcha o'quv fanlaridan bilim berayotgan o'qituvchi musiqa darsini ham o'tadi. Beshinchi-sakkizinchi sinflarda bu darslarini musiqa mutaxassisi olib boradi.

Germaniyada musiqa o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari Germaniyaning yirik nemis kompozitori va buyuk pedagogi Karl Orf (1895-1982) jahonda keng tarqalgan bolalar musiqiy tarbiya uslubiyotining asoschilaridan biri hisoblanadi. Jak Dalkrozning o'quv tizimiga asoslanib Karl Orf "Oddiy musiqa" (elementar musiqa) g'oyasini ishlab chiqdi va bu g'oyani Myunxendagi (Gyunter maktabi) gimnastika va raqs maktabidagi o'qitish uslubiga aylantiradi. 1953 – yilda Avstriyaning Zaltsburg shahrining Motsarteum deb nomlangan musiqa dargohida Karl Orf instituti tashkil topib, u Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh), Angliya, Germaniya, Hindiston kabi 30 dan ortiq mamlakatlarni birlashtirgan baobro' ilmiy muassasaga aylanib ketdi. Karl Orf nomidagi institutda 400 dan ortiq o'quvchi, 50 dan ziyod pedagog ta'lim oladi. Karl Orf kashfetgan bolalar va o'smirlar musiqiy tarbiya usuli o'quvchilarning musiqiy folklordan keng miqyosda foydalanishi, ularning ijodiy ko'nikma va imkoniyatlarini rivojlantirishga asoslangan. Ushbu o'quv usuli tamoyillari xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan "Shulverk" to'plamida o'zining badiiy metodik talqinini topdi. Besh jildlik "Shulverk" uslubiy qo'llanmasi, asosan umumta'lim maktablari va bolalar muassasalaridagi 4 yoshdan -16 yoshgacha bo'lgan bolalar uzluksiz musiqiy ta'lim-tarbiyaga mo'ljallangan.

Jahonning ko'pgina mamlakatlarda yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Yunesko qoshidagi xalqaro musiqiy tarbiya jamiyati (ISME) o'z faoliyatini rivojlantirmoqda. Bu jamiyat o'z oldiga dolzarb va ezgu maqsadlarni qo'yib, butun jahonda bolalar va o'smirlarni musiqiy tarbiyalash, bu jarayonni yosh avlodni axloqiy, intellektual va estetik jihatdan shakllatirishda qudratli vosita sifatida o'rganadi. Bu tashkilot faoliyatining asosiy shakllaridan biri xalqaro miqyosida o'tkazilayotgan anjumanlar bo'lib, unda kompozitorlar, etakchi tashkilotlar, amaliyotchi - pedagoglar, bolalar xor jamoalarining rahbarlari ishtirok etadilar. ISME anjumanlari ikki yilda bir marta o'tkazilib, jahonning turli mamlakatlaridagi musiqiy tarbiya tajribalari bilan turli mamlakatlardagi musiqiy tarbiya tajribalari bilan to'la tanishish imkonini beradi.



O'zbekistonda aynan umumta'lim maktablarida musiqa fanini o'quv ta'lim fanlari qatorida va maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassis pedagoglar tomonidan olib borilishi quvonarli albatta. Maktabda o'tiladigan musiqa darslari, musiqaga oid to'garaklar orqali o'quvchilarning birinchi navbatda bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishi hamda ulardagi ichki qobiliyatlarini, qiziqishlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Davlatimiz mustaqillikka erishgach, o'zbek xalqi o'z madaniyati va san'atini har tomonlama rivojlantirishga, uni yangi mazmun bilan boyitish imkoniyatiga ega bo'ldi. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida musiqa darslari DTS tomonidan tasdiqlangan darsliklar asosida o'tiladi. 1-7 sinf mobaynida musiqa darsi haftada bir marta o'quv fanlari qatorida o'tiladi. Maktabda musiqa o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirishlarni zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazish. Maktabda musiqa darslarini o'qitishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

O'quvchilarni musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishi va mehr-muhabbatini oshirish;

Musiqiy faoliyatlar jarayonida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlari, musiqiy o'quvi, ovozi, diqqat e'tibori va ijodkorlik his tuyg'ularini o'stirish;

Musiqiy asarlarni badiiy g'oyaviy mazmuni vositasida axloqiy estetik ruhda tarbiyalash;

Musiqa darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, mehnatga muhabbat, Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish;

Musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lishi lozim.

Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi. Shu bois prezident tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.

Aynan mana shu beshta muhim tashabbusning 1- tashabbusini Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tomonidan yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga qaratilganligi yoshlarni iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Respublikamizda yoshlar ma'naviyatini rivojlantirish, badiiy didini shakllantirish, estetik tarbiyani amalga oshirish bolalarni musiqa san'atiga qiziqtirish, ularni jalb etish uchun "Yagonasan, muqaddas Vatan", "Sa'nat g'unchalari", "Xor festivali", "Ona yurt ohanglari", "Nafosat gulshani" oliy ta'lim muassasalariaro Respublika ko'rik tanlovlarni o'tkazishning meyoriy asoslari moddiy texnika bazasi yaratildi. "Ijtimoiy sohani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport



sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” kabi ustivor vazifalar belgilangan. Yoshlarning musiqa sanatiga qiziqishini oshirish “Xalqaro maqom festivali”, “Xalqaro baxshichilik festivali”, “Toshkent bahori” xalqaro opera va balet sa’nati festivallarini o’tkazish alohida ahamiyat kasb etadi.

Turli chet mamlakatlari va O‘zbekiston ta’lim tizimidagi yutuq va kamchiliklarni ko‘rib chiqib xulosa qilib aytish mumkinki:

Umumta’lim makotablaridagi o‘qituvchilarini respublikamizda har yili bir qancha davlat mukofotlari bilan rag‘batlantirib kelinmoqda. Shu o‘rinda musiqa, san’at soxasidagi mutaxassis o‘qituvchilarni ham o‘ziga hos davlat mukofotlari bilan rag‘batlantirish lozim. Misol uchun, “Yilning eng yaxshi musiqa o‘qituvchisi”, “Umumta’lim maktabidagi san’at soxasi a’lochisi”, “Eng yaxshi mohir ijrochi pedagog”, “Eng yaxshi ijodkor o‘qituvchi”, kabi mukofotlarni joriy qilish orqali nafis san’at va ijod ahli bo‘lmish musiqa o‘qituvchilarini yanada o‘z ustilarida ishlashlariga, yangi ijod namunalarini yaratib, ularni o‘quvchilarga o‘rgatib borishlarida ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr O‘RQ-637 son Qonuni.
3. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2016 yil 14 sentyabr.
4. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatdaamalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son Qarori. 2018 yil 5 iyun.
5. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha beshta muhim tashabbus to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20 martdagi Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son Farmoni. 2019 yil 29 aprel.
7. G‘ofurbekov T. O‘zbekiston musiqa madaniyati.
8. Baxritdinova N.A. “O‘zbekiston bolalar xor madaniyati” – T., 2002.
9. I.B.Matyoqubov “Xor va xorshunoslik” Toshkent 2020.
10. I.B.Matyoqubov “Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish”. 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi doirasida tadqiq etgan dissertatsiyasi. Toshkent 2021.



BIOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY TAHLILI

N.A.KARIMOVA,

TDPU o'qituvchisi, (PhD)

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning nazariy tahlili yoritiladi. Biologiya ta'limida kasbga yo'naltirishning o'ziga xos xususiyatlari o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga xos tushunchalar mazmuni yoritiladi.

Kalit so'zlar: maktab, kasbga yo'naltirish, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish mazmuni, shart-sharoit, faoliyat usullari, "Biologiya" o'quv fanida kasbga yo'naltirish imkoniyatlari.

В статье проводится теоретический анализ профориентации учащихся в процессе биологического образования в общеобразовательных школах. Специфика профориентации в биологическом образовании подчеркивает содержание понятий, характерных для профориентации студентов.

Ключевые слова: школа, профориентация, содержание профориентации учащихся, условия, методы работы, возможности карьерного роста по предмету «Биология».

The article provides a theoretical analysis of the career guidance of students in the process of biological education in secondary schools. The specificity of vocational guidance in biological education emphasizes the content of concepts that are characteristic of students' vocational guidance.

Key words: school, career guidance, the content of vocational guidance of students, conditions, methods of activity, career opportunities in the subject «Biology».

Hayot tajribasidan ma'lumki, o'quvchi o'z hayoti yo'lida to'g'ri tanlov qila olishi uchun hammadan ham ko'proq maktab mas'uldir. Shuningdek, maktab ishlarining barchasi bolaning o'z iqtidori va qobiliyatlariga mos kasb tanlay olishigayo'naltirilishi lozim. Respublikamizda umumiy o'rta ta'limning yangi tahrirdagi davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq, asosiy ustivorlik kompetentli yondashuvni amalga oshirish, o'qitishning innovatsion texnologiyalarini amaliyotga joriy etish, kasbga yo'naltirish ishlarini samarli tashkil etishni nazarda tutadi.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchi yoshlarni kasbhunarga tayyorlashning yangi tizimini joriy etish va unda: umumiy o'rta ta'lim muassasalari mutaxassislari tomonidan o'quvchilarni 7-sinfdan boshlab kasbhunar egallash va o'zini o'zi band qilish orqali xizmatlar ko'rsatish (frilansing) yo'nalishlariga qiziqishlarini aniqlash va bunday o'quvchilarning ma'lumotlari



bazasini yaratish; 8-9-sinf o'quvchilariga dasturchi, dizayner, tarjimon kabi istiqbolli kasblar uchun poydevor bo'ladigan bilim va ko'nikmalar berish; o'quvchilarining kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar asosida 9-sinfdan so'ng kelgusida aniq ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar maktablarida ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish; umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10–11-sinf o'quvchilarini tanlov fanlari yo'nalishidagi (variativ) o'quv reja asosida kasb-hunarga yo'naltirish shuningdek, kasb-hunar o'rgatuvchi davlat va nodavlat tashkilotlarda vaucher tizimi asosida yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga o'rgatish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, kasb-hunarga o'rgatish kurslarini tamomlagan umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbhunar ko'nikmalarini amaldagi kvalifikatsiya ramkalari asosida baholash, tegishli (xalqaro) sertifikat va rezidentlik maqomini berish bo'yicha mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi sertifikatsiyalash markazini tashkil etish taklifi ham berilmoqda.

Endilikda ta'lim tashkilotlariga qo'yiladigan muhim ijtimoiy talab o'quvchining shaxsiyatini rivojlantirishdir, toki u butun hayoti davomida orttirgan bilim, ko'nikma va malakalaridan muloqot, ijtimoiy munosabat hamda inson faoliyatining turli jabhalarida uchraydigan hayotiy vazifalarni hal qilish uchun imkon boricha keng foydalanishini taqozo etadi. Ta'lim jarayoni o'quvchilar faoliyati usullarini o'zlashtirishga, kasblarini o'zlari aniqlay olishiga, ularda jamiyatda o'z o'rinlarini topishga muvaffaq bo'lish hamda mehnat bozoriga faol tarzda moslashish uchun zarur bo'lgan bilim va ijodiy iqtidorlarini shakllantirishga asoslangan bo'lishi zarur. Qiziqishi, qobiliyati, sog'lik imkoniyatlari, qadr-qimmatga nisbatan munosabat va nihoyat tanlanayotgan kasbning nomzod shaxsiyatiga quyuvchi talablarga mos ravishda to'g'ri tanlov qilish muhim hisoblanadi. U yoki bu kasbni tanlash ko'p hollarda o'quvchilarning o'quv fanlariga bo'lgan qiziqishini oshirish ta'sirida amalga oshiriladi. Biologiyaga nisbatan qiziqish, avvalo mazkur fanlarning amaliy ahamiyati bilan bog'liq. Shu bilan birga, biror bir kasbga bo'lgan qiziqishning dunyoga kelishida asosiy omillardan biri – bu o'tilayotgan darsning maroqli va ta'sirli bo'lishi.

Biologiyaga mehr qo'ygach, o'quvchilar bo'lajak kasblari uchun ularni asos qilib olishni istaydi, mazkur fanlar bilan bog'liq qanday mutaxassisliklar mavjudligini aniqlay boshlaydi va kerakli oliy o'quv yurtiga kirishga hozirlik ko'radi. Odatda bu hodisa birinchi navbatda o'quvchilar ushbu fanlarni kuchli ishtiyoq bilan faol tarzda o'rganganda paydo bo'ladi. Ta'lim berish jarayonida kasbga yo'naltirish ishining



mohiyati o'quvchilarning asosiy o'quv materiallarini chuqur va mustahkam o'zlashtirishiga ko'maklashish, ularni mustaqil ravishda ma'lumot olishga hamda o'zlashtirilgan bilimlardan turli amaliy topshiriqlarni bajarishda foydalanishga o'rgatishdan iborat. O'quvchilar orasida o'zlari qiziqqan kasblari borasida so'rovnoma o'tkazish ularning kasbiy qiziqishini aniqlash va maslahatlar berish, o'zi sevgan kasbga yo'naltirish, qiziqishini orttirish uchun yordam beradi. Shuningdek, bunday so'rovnomalarni tahlil qilish olingan natijalarni mutaxassislik turlari bo'yicha aralashga va guruhli maslahatlar berishga imkon beradi. Mana shu olingan natijalarga tayangan holda, o'spirinlarning kasb yo'nalishini shakllantirish, ularning o'z qiziqishlarini, qobiliyatlarini, kasb tanlash va jamiyatda tutgan o'rni bilan bog'liq umumiy qadriyatlarini anglab yetishlari uchun kerakli sharoitni yarataman.

Loyihalash texnologiyasini amalga oshirar ekanman, o'quv materiali tarkibini tanlashda quyidagi asosiy tamoyillarga tayanaman: ilmiylik va tushunarlilik, ko'rgazmalilik, interfaollik, individual xususiyatlar hisobga oliish va fikrlashni rivojlantirish hamda o'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqot ochiq bo'lishi lozim. Kasb tanlash – inson yoshligida amalga oshirishi kerak bo'lgan eng muhim tanlovlardan biridir [4]. Negaki, inson kasb tanlar ekan, o'z hayot yo'lini ham tanlagan bo'ladi. Bizning zamonamizga kelib, kasblar miqdori besh xonali son bilan o'lchanadi, kasblar hayoti esa harkatlarga boy bir tasvir kabidir. “Kasbga yo'naltirish” tushunchasi hattoki ilk kez uchratib turgan kishiga ham tushunarli bo'lsa kerak. Bu – maktab o'quvchilarini u yoki bu kasbga yo'naltirish hisoblanadi. Shu bilan birga, kasbga yo'naltirish deyilganda katta hayotga qadam qo'yayotgan yoshlarga bo'lajak kasblarini ilmga asoslangan holda tanlashga ko'mak beruvchi tadbirlar tizimi yoki o'quvchilar o'zlari istagan kasbni aniqlagan damda ularga ko'mak berish, kasbiy yo'nalishni rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar tizimi ham tushuniladi.

Kasb (lotinchada professio – rasmiy ravishda ko'rsatilgan hunar, ixtisos, profiteer – ishinni ma'lum qilaman) – muayyan tayyorgarlikni talab qiluvchi hamda tirikchilik manbai hisoblangan mehnat faoliyati turidir. “Yo'naltirish” tushunchasi bir qator fanlarda qo'llaniladi. Qanday bo'lmasin bu jumla hamma sohada ham turgan joyini aniqlash va harakat yo'nalishini tanlash bilan bog'liq. To'g'ri ma'noda – atrofimizdagi muhitda o'z o'rmini topa olish qobiliyati, ko'chma ma'noda – ilmiy, ijtimoiy va boshqa faoliyatlarda muayyan tomonga yo'nalishni anglatadi. Biologiya – “hayot haqidagi fan” ekan, demak, bu fan zerikarli bo'lish ehtimolidan yiroq. Bugunga kelib, biologik tadqiqotlar, biotexnologiyalar gurkirab rivojlanayotgan bir vaqtda, biologiya fanining jo'shqin qadamlari butun sayyoramizda sezilib turadi.



Professional biologlar, siyosatchilar, tadbirkorlar va oddiy insonlar (kasbidan qat'iy nazar) o'z umidlarini biologiya bilan bog'laydilar: ekologik krizisni yengib o'tish, gen muhandisligi istiqbollari va boshqa ko'p masalalar. Shunday ekan, kasb bir belgi bo'lib, mehnat faoliyatining muayyan turi bilan shug'ullanuvchi insonlar guruhini ifodalab keladi. O'ziga biror bir kasbni tanlash – nafaqat bir ishni tanlashni anglatadi, balki muayyan bir guruhga qabul qilinganligini, o'sha guruhning odobahloq meyorlarini, qonun-qoidalarini, qadriyatlari va hayot tarzini qabul qilishini bildiradi. Biologiya ta'limida kasbga yo'naltirish darsda, sinfdan va darsdan tashqari mashg'ulotlarda uzviy amalga oshiriladi.

Darsdan tashqari ishlarning maxsus ko'rinishlariga kasbga yo'naltirish ishlari oyligi, kasblar haftaligi mos keladi, ular kitob ko'rgazmalari, o'quvchilar va korxonalar mahsulotlari, ekskursiyalar, mutaxassislar, maktab bitiruvchilari bilan uchrashuv, turli suhbatlar, kitobxonlik konferensiyalari va shu kabilarni tashkil etishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, o'quv fanini o'qitish amaliyoti shuni ko'rsatadi-ki, "Biologiya" fanini o'qitishda kasbga yo'naltirish ishlarining samaradorligini oshirish uning barcha usul va turlaridan kompleks ko'rinishda qo'llashni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasida o'quvchiyo'shlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.

2. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.

3. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. – Toshkent: O'zPFITI. 2004. 32 b. 5.

4. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet. 5. [https://uzreport.news/society/oquvchilarni – kasb-hunarga-tayyorlashning-yangi-tizimini-joriy-etish-taklif-qilindi](https://uzreport.news/society/oquvchilarni-kasb-hunarga-tayyorlashning-yangi-tizimini-joriy-etish-taklif-qilindi).



BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINING KASBIY METODIK TAYYORGARLIGIDA KOMPETENTLIK MODELINING AHAMIYATI

R.B. YARMATOV,

p.f.d. (DSc), prof. JizDPI

Ushbu maqolada bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligida kompetentlik modelining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy tayyorgarlik, kompetentlik modeli, metodik tayyorgarlik, metodik kompetentlik, didaktika, metodik fikrlash, rivojlanish dinamikasi.

This article discusses the importance of the competence model in the professional methodological training of future history teachers.

Key words: professional training, model of competence, methodical training, methodical competence, didactics, methodical thinking, dynamics of development.

В данной статье рассматривается важность компетентностной модели в профессионально-методической подготовке будущих учителей истории.

Ключевые слова: профессиональная подготовка, модель компетентности, методическая подготовка, методическая компетентность, дидактика, методическое мышление, динамика развития.

Kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuv, oliy ta'lim davlat standartida bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga zamonaviy talablarni qo'yadi. "Kasbiy tayyorgarlik" tushunchasi muayyan mutaxassislik bo'yicha muvaffaqiyatli ishlashni ta'minlaydigan umumiy va maxsus kompetentliklar to'plamini o'z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotlarda bo'lajak o'qituvchining, shu jumladan tarix o'qituvchisining kompetentlik modelini ishlab chiqish va tavsiflashga harakat qilinmoqda [1]. Kasbiy ta'limning bo'lajak tarix o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratilishi pedagogik jamoaning maqsadlari, mazmuni va uning kasbiy tayyorgarligini tashkil etishni qayta ko'rib chiqish vazifasini qo'ydi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi [3].

Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kompetentlik modeli tarkibidagi ko'plab tadqiqotchilar mavzu, ijtimoiy, psixologik, pedagogik, metodik kompetensiyani ajratib ko'rsatadilar. "Tarix o'qitish metodikasi" fanini o'rganish jarayonida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy metodik tayyorlashning maqsadi va natijasi sifatida metodik kompetensiyani shakllantirish juda aniq. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida



bo'lajak tarix o'qituvchilarining metodik kompetensiyasini shakllantirish muammosi bo'lajak tarix o'qituvchilarining malaka xususiyatlariga yangi talablar nuqtai nazaridan ayniqsa dolzarb va muhimdir. U nafaqat yaxshi o'qituvchi bo'lishi, balki turli xil ilmiy va pedagogik yondashuvlarga ham amal qilishi kerak; nafaqat tayyor uslubiy materiallardan foydalanish, balki yangilarini yaratish: darsliklar, ishlanmalar va tavsiyalar, elektron o'quv vositalari. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining metodik kompetentligi bo'lib, unga kelajakdagi faoliyatini ongli ravishda loyihalashtirish, o'qitishning samarali metodik tizimini qurish imkonini beradi. N.A. Morozova [5] va boshqa tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ta'lim tizimini pedagogik fan va amaliyotning zamonaviy talablariga javob beradigan uslubiy, didaktik va metodik ishlanmalar bilan qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olgan ilmiy va uslubiy yordamdir.

Shuningdek, metodik mahorat oliy ta'lim muassasalari bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy vazifalarni samarali va sifatli hal etishga tayyorligi va qobiliyatini belgilaydi. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining metodik kompetentligiga ko'ra, biz bo'lajak tarix o'qituvchilarining bilim, ko'nikma, qobiliyat va munosabatlarining maqbul kombinatsiyasini tushunamiz, bu metodik vazifalarni samarali va sifatli hal etishni ta'minlaydi.

N.A.Muslimov va K.Abdullayevlarning fikricha, kompetentlik – olingan nazariy bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish darajasi, bu ham talabaning amaliyot jarayonida va oliy ta'limdan keyingi faoliyatida shakllanib boradi [4].

Ta'lim tizimida metodik kompetentlik. Uning tarkibiy qismlari metodik savodxonlik, metodik fikrlash va metodik ijoddir.

V.A.Adolfning fikricha, kompetentli o'qitish metodologiyasini yaxshi biladigan va shuningdek, turli uslubiy tizimlarga munosabatini aniq belgilaydigan va metodologiyada o'z shaxsiy faoliyat uslubiga ega bo'lgan o'qituvchi deb atash kerak [2].

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishi [6].

Shunday ekan, metodologik kompetentlikning asosiy asosi metodologik bilim bo'lib, uni umumiy metodologiya va maxsus metodologiyaga ajratish mumkin.

Birinchi guruh bilimlari quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- tarix o'qitish metodikasining kelib chiqishi va rivojlanish tarixi;
- metodika fani va amaliyotining dolzarb muammolarini bilish;
- tarix o'qitishning zamonaviy metodlarining fundamental g'oya va tamoyillarini bilish;
- tarixning fan va o'quv intizomi sifatida umumiy xususiyatlari;
- maktabda tarix o'qitishga zamonaviy yondashuvlar;
- zamonaviy tarix ta'limini tartibga soluvchi davlat me'yoriy hujjatlari;
- maktabda tarixni o'rganishning maqsad va vazifalari;



- maktab tarixi kursining tuzilishi va mazmuni;
- tarixni o'rganish usullari, metodlari, o'qitish vositalari, shuningdek;
- mashg'ulotlarni tashkil etish va nazorat qilish shakllari.

Xususiy-metodik bilimlar quyidagilardan iborat:

- xususan umumiy va ta'limiy (sinfdan tashqari) mashg'ulotlarda tarix o'qitishni loyihalash bilan bog'liq bilimlar;
- o'z metodik ta'lim tizimini yaratish bilan bog'liq bilimlar;
- o'z metodik mahsulotlarini yaratish bilan bog'liq bilimlar: ish dasturi, reja, o'quv-uslubiy majmua, metodik ishlanmalar, o'quv va uslubiy materiallar (shu jumladan elektron). Shuningdek, umumiy metodik va xususiy metodik bilimlar Tarix fakultetida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash tizimida Tarix o'qitish metodikasi kursining mazmunini aniqlaydi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarining metodik kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi uslubiy fikrlashni shakllantirish darajasidir, bu unga samarali usullar, metodlar va o'qitish vositalarini doimiy izlash va tanlash, shuningdek, rivojlanayotgan uslubiy tizimni doimiy takomillashtirish imkonini beradi.

Har qanday metodik bilim va ko'nikmalarni qo'llash samaradorligi bo'lajak tarix o'qituvchilarining ularni darsdagi individual xususiyatlari, o'quv jarayonining moddiy, texnik va o'quv-uslubiy imkoniyatlari bilan belgilanadigan muayyan pedagogik vaziyatga integratsiya qilish qobiliyatiga bog'liq. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining harakatchanligi, moslashuvchanligi uning metodik tafakkurining shakllanish va rivojlanish darajasiga bevosita mutanosibdir. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining metodik tafakkurini ilmiy-metodik bilimlar va aniq pedagogik vaziyatlarga muvofiq tarix ta'limi maqsadlarini amalga oshirishning samarali yo'llarini tushunish va izlashga qaratilgan fikrlash sifatida belgilaymiz. Shunday qilib, metodik fikrlash-bu barcha mavjud shart-sharoitlar va omillarni hisobga olgan holda ta'lim jarayonini pedagogik loyihalash va tashkil etishning muayyan ko'rinishi. Shu bilan birga, metodik fikrlashni ko'p darajali hodisa sifatida tushunish kerak, chunki u bo'lajak tarix o'qituvchilarining o'ziga xos munosabati, bilimdonligi, kasbiy va shaxsiy fazilatlarini va munosabatlarini aks ettiradi. Bu tafakkur turining eng muhim xususiyati aynan har bir aniq o'quv-uslubiy vaziyatni ko'rish va tushunish, uning optimal yechimini tezkor tanlash va amalga oshirish ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tish zarur.

Metodik tafakkurning shakllanish darajasi uning kasbiy harakatchanligini oshiradi, metodik kompetentlikning rivojlanish dinamikasini ta'minlaydi.

Tarix fakulteti bo'lajak tarix o'qituvchilarining metodik tafakkurini shakllantirish mavzuni o'qitish metodologiyasini o'rganish jarayonida quyidagi asosiy tadbirlarni amalga oshirishda tipik va aniq o'quv-uslubiy vazifalarni hal qilishda izchil o'qitishni o'z ichiga oladi: analitik, semantik, modelashtirish, loyihalash, konstruktiv. Darslarda va mustaqil amaliy ishlar jarayonida bo'lajak tarix o'qituvchilarining o'quv faoliyatini



tashkil etish vazifalar tizimi orqali amalga oshiriladi:

- tarixga oid o'quv materialini tahlil qilish va tanlash, uning axloqiy va mafkuraviy g'oyalarni shakllantirish bilan bog'liqligini aniqlash;
- tarbiya usullari, metodlari va vositalarini tanlash;
- faoliyatning uslubiy mahsulotlarini tahlil qilish;
- aniq o'quv-uslubiy vaziyatlarda o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi pedagogik o'zaro munosabatlarni loyihalashtirish va boshqalar.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishda kompetentlik modeli ahamiyatlidir. Chunki, bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy metodik tayyorlashning maqsadi va natijasi sifatida kasbiy metodik kompetensiyani shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулгалимов Г.Л. Модель готовности современного учителя к профессиональной деятельности // Стандарты и мониторинг в образовании. 2009. № 5. С.44-47.

2. Адольф В.А. Профессиональная компетентность современного учителя. Красноярск: Изд-во Красноярского гос. университета, 1998. 309 с.

3. Муслимов Н.А., Усмонбоева М., Мирсолиева М. “Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Т: 2016. – 147 б.

4. Муслимов Н.А., Абдуллаева Қ. Бўлажак касб-хунаар коллежи ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантиришнинг айрим масалалари. / “Олий таълим муассасалари педагог ва бошқарув кадрларининг малакасини ошириш назарияси ва амалиёти” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. -Тошкент: ТДПУ, 2012. – Б. 26-28.

5. Морозова Н.А. Компетентность и проблемы её формирования в системе непрерывного образования (школа-вуз-послевузовское образование) // Материалы XVI научно-методической конференции «Актуальные проблемы качества образования и путей его решения». М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. 130 с.

6. Химматалиев Д. О. Бўлажак ўқитувчиларда касбий компетентликни ривожлантириш механизми // Современное образование (Ўзбекистан). – 2020. – №. 7 (92). – 18 с.



O'ZBEKISTON HARBIY OLIYGOHLARIDA BO'LAJAK OFITSERLARNING UZLUKSIZ TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

S.S. YARASHEV,

Qurolli kuchlar akademiyasi katta o'qituvchisi

Maqolada hozirgi O'zbekiston harbiy oliygoqlarida texnologik kompetentlikni rivojlanishi, bo'lajak ofitserlarda pedagogik mahorat shakllanishi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Harbiy, ofitser, pedagogika, texnologik kompetentlik, rivojlantirish

В статье рассматривается развитие технологических компетенций в военных вузах современного Узбекистана, формирование педагогических навыков у будущих офицеров.

Ключевые слова: военный, офицер, педагогика, технологическая компетентность, развитие.

The article examines the development of technological competencies in military universities of modern Uzbekistan, the formation of pedagogical skills in future officers.

Key words: military, officer, pedagogy, technological competence, development.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida harbiy ta'lim, eng avvalo, o'qitish jarayonining nisbiy natijasi bo'lib, u bo'lajak ofitserlarda shakllangan bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimida ifodalanadi, shuningdek, ta'lim, tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash, ta'sir ko'rsatish jarayoni, ya'ni inson ma'naviy qiyofasining shakllanish jarayoni, bunda eng asosiysi o'zlashtirilgan bilimlar xajmi emas, balki bilimlarning shaxsiy sifatlar bilan uyg'unlashishi, o'z bilimlaridan mustaqil foydalana bilish muhimdir [1].

Bo'lajak ofitserlarning uzluksiz texnologik kompetentligini takomillashtirishda quyidagi milliy-ma'naviy omillarning ahamiyatli ekanligi aniqlandi:

- ijtimoiy faol barkamol shaxs tarbiyasini bosh maqsad qilib qo'yish, harbiy ta'lim jarayonining ilmiyligi, tarixiyligi va milliyiligi e'tibor qaratish,

- milliy va umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarning uzviyligini ta'minlash, - bo'lajak ofitserlarning ijtimoiylashuvi hamda individuallashuvi jarayonlarini keng rivojlantirish;

- harbiy ta'lim jarayonini demokratik tamoyillar asosida tashkil qilish, uning xalqchilligi, erkinligi, ochiqligi (transparentligi), ozodligi, tengligi tamoyillari asosida tashkil qilishini ta'minlash;

- harbiy ta'lim jarayonida shaxs takomili uchun zarur harbiy shart-sharoitlar



va taʼlim-tarbiya muhitini tashkil qilish;

Boʻljak ofitserlarning fuqarolik jamiyati taraqqiyotidagi oʻrni vazifalari masalalariga ularning eʼtiborini jalb etish;

– milliy gʻoya va mafkurani tarbiyasining uzviyligi va uzluksizligiga rioya etish, boʻljak ofitserlarning mutaxassis sifatida raqobatbardoshlik mezonlarini egallashlariga koʻmaklashish, milliy oʻzlikni anglash, multikulturalizm, madaniyatlar rang-barangligi tamoyillarining hayotiy jarayonlarda faol qoʻllanilishiga erishish kabilar.

Har qanday yangilik jamiyatdagi oʻzgarishlar tufayli va ilmiy texnika taraqqiyotining mantiqiy davomi sifatida paydo boʻladi. Faoliyat sohalarida yangiliklar boʻlishi muqarrar. Ilmiy texnika taraqqiyoti korxona va tashkilotlarning mehnat faoliyatida muhim oʻzgarishlarni taqozo etadi. Boʻljak ofitserlarda uzluksiz texnologik kompetentlikni shakllantirish – Oʻzbekiston Respublikasi xalqida, ayniqsa yoshlarida Oʻzbekiston Respublikasi bilan faxrlanish tuygʻusi va mustaqil Vatani himoya qilish qobiliyatini shakllantirishdir. Siyosiy va axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismi boʻlib, gʻoyaviy-nazariy asosi – Vatan xavfsizligi uchun fuqarolik burchi va masʼuliyatini anglab yetishdir. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining vazifasi – Vatanga muhabbat, baynalmilallik, Qurolli Kuchlarning jangovar va oʻzbek xalqining milliy anʼanalariga sodiqlik sifatlarini tarbiyalash, harbiy va harbiy-texnik bilimlarning puxta egallanishiga omil boʻlishdir. Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarini Vatan himoyasiga tayyorlashda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, mamlakatimizdagi muassasa va korxonalarning jamoat tashkilotlari, “Kamolot” ijtimoiy harakati, “Sogʻlom avlod uchun”, “Mahalla”, “Nuroni” jamgʻarmalari, MK “Vatanparvar” tashkiloti, Mudofaa ishlari boshqarma va boʻlimlari, urush faxriylari tashkilotlari, sport qoʻmitalari va shu kabi tashkilotlarning oʻrni muhimdir. Qurolli kuchlar akademiyasi oʻqituvchisi texnologik yondashuv asosida boʻljak ofitserlarni uzluksiz texnologik kompetentligini shakllantirish uchun, eng avvalo, texnologik innovatsiyalar toʻgʻrisida tushunchaga ega boʻlishi kerak. Harbiy sohadagi texnologik innovatsiyalar Gʻarb davlatlaridagi harbiy bilim yurtlari olimlari tomonidan oʻtgan asrning 50 yillari oxirlaridan boshlab, mustaqil Oʻzbekistonda esa, keyingi 10 yillikda maxsus oʻrganila boshlangan. Bu jarayonda komandirlar va ularning tarbiyaviy ishlar boʻyicha oʻrinbosarlari, shuningdek harbiy jamoa tashkilotlari, jangchilar, yoshlar va oʻquvchilarni harbiy vatanparvarlik ruxida tarbiyalashga ulkan hissa qoʻshadilar.

Endilikda yangiliklarni umumiy qoʻllash doirasi ancha kengaydi. Shu sababli yangi bilimlarga boʻlgan talab, “yangilik”, “texnologiya”, “texnologik jarayon”,



“texnologik faoliyat” tushunchalari ma’nosini anglashga e’tibor kuchaydi. Shu boisdan, oliy harbiy ta’lim muassasalarining “Umumiy harbiy tayyorgarlik”, “Harbiy psixologiya va pedagogika” va “Harbiy va boshqaruv psixologiyasi” fanlarining dasturlari, ishchi o’quv dasturlari hamda o’quv-uslubiy majmualari, harbiy amaliyot darslari bo’lajak ofitserlarning uzluksiz texnologik kompetentligini takomillashtirish yuzasidan yangi talqinda, yangi izlanishlar asosida tahlil etildi va zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirildi.

Zamonaviy harbiy o’quv darslarida texnologik kompetentlik faoliyatini joriy etish – innovatsion usulni qo’llash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar harbiy ta’lim jarayoni hamda o’qituvchi va bo’lajak ofitserlar faoliyatiga yangilik, o’zgarishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda, asosan, interfaol uslublardan foydalaniladi [2, 4].

Harbiy ta’limda belgilangan qoida, me’yor va talablar barcha harbiy ofitserlar va yig’inga chaqirilgan, shuningdek harbiy kiyim kiygan xaxiradagi (iste’fodagi) serjant, ofitser va generallarga oid hisoblanadi. Harbiy me’yor va qonun qoidalarga urush va tinchlik sharoitida ham, safda va safdan tashqarida ham, harbiy qism va uning tashkarisida ham rioya etish shartdir. Aynan kuchli tartib intizom bo’lajak ofitserlarga innovatsiyalarni samarali tadbqiq etish va kelgusi amalga oshiriladigan faoliyatiga ma’lum chegaralarni qo’ygan holda uni mukammallashtirishga yordam beradi. Tez va shiddat bilan rivojlanayotgan axborot asrida bo’lajak ofitserlar bilimli, chuqur mushohada va mulohaza asosida qarorlar qabul qilishga qodir, fanning sir-asrorlarini puxta egallagan bo’lishlari shart. Harbiy bo’lajak ofitser shaxsini har tomonlama rivojlantirishning muxim vositasi sifatida ularda uzluksiz texnologik kompetentlikni shakllantirish muammosini o’rganishga e’tibor kuchayib bormoqda. Bunga quyidagi yo’nalishlarni misol kelib keltirish mumkin:

- ilmiy-texnika tarakkiyoti sharoitida o’qitishni ishlab chiqarish;
- Harbiy amaliyoti bilan birlashtirish asosida bo’lajak ofitser shaxsini shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;
- o’qitishni ijtimoiy-harbiy faoliyat bilan bog’lashning yaxlit jarayonida bo’lajak ofitserlarda ta’lim, faoliyati, yo’nalish tanlashga ongli munosabatini yanada samarali shakllantirish;
- o’qitishning harbiy faoliyat bilan birligi jarayonining asosiy ziddiyatlari va ularni xal etish usullarini aniqlash.

Zamon talablari asosida xalqaro miqyosda bo’lajak ofitserlarga ta’lim-tarbiya



berishda harbiy ta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan umumiy rejada jismoniy intizom, harbiy texnikaviy texnologiya, tarix, tarbiya fanlarining amaliy jihatlari umumlashtirib integratsiyalashni nazarda tutadi. Bu esa bo'lajak ofitserlarning innovatsion fikrlashini, ularda texnologik kompetentlikning shakllanishini ta'minlaydi.

Bizning nazarimizda, innovatsion yondashuv asosida bo'lajak ofitserlarda uzluksiz texnologik kompetentlikni shakllantirish vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1) Bo'lajak ofitserlar qobiliyatlari hamda jamiyat ehtiyojlariga qarab, ularni har xil harbiy mehnat faoliyati orkali rivojlantirish uchun eng maqbul shart-sharoitlarni yaratish;

2) davlatlararo harbiy xaziralarning mustahkamligi sharoitida bo'lajak ofitserlarni raqobat va xalqaro siyosiy harbiy faoliyatga tayyorlash;

3) bo'lajak ofitserlarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish;

4) bo'lajak ofitserlarni real harbiy faoliyatda harbiy siyosiy-iqtisodiy munosabatlarga jalb etish va ularning harbiy o'quv faoliyatining texnologik yo'nalganligini ta'minlash;

5) texnologik kompetentlik asosida o'quvchida shaxsiy sifatlarni shakllantirish.

Hozirda ta'lim tizimi oldiga tevarak-atrofdagi murakkab o'zgarishlarga doimiy ravishda moslashishni ta'minlash vazifasi qo'yilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etishning yagona davlat tizimi tasarrufidagi kuch va vositalar harakatlarining ta'minot turlarini yaratish, texnologik rivojlanish davri bo'lmoqda. Harbiy oliygohlarning vazifasi esa, eng yaxshi texnologik kompetentlik asosida rivojlangan bo'lajak harbiy ofitserlarni tayyorlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isyanov R.G., Abduraimov Sh.S. Ishlab chiqarish amaliyotining tarkibiy komponentlari integratsiyasi // Pedagogika. Toshkent, 2015. №5. – 78 B.

2. Muslimov N.A. Mutaxassisning kasbiy shakllanishida masofaviy ta'limdan foydalanish yo'llari // J. Lp.Gosopsh. -2004. -№ 5. 60-62-b

3. Mardanov Sh.D. Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ...diss. – T., 2006. – 302 b.

4. Olimov K.T. Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari: Ped. fan. dokt. diss. avtoref. - Toshkent, 2005. – 44 b.



O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV FAOLIYATINING TASHKILIY XUSUSIYATLARI

A.G.IBRAGIMOV,

A.Avloniy nomidagi XTMO'IBITI

*Xalq ta'limi tizimi statistikasini shakllantirish
va tadqiq qilish ilmiy-tadqiqot bo'limi mudiri,
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent*

I.T.MEXMONOV,

*A.Avloniy nomidagi XTMO'IBITI O'quv jarayonini
tashkil qilish bo'limi boshlig'i, mustaqil tadqiqotchi*

Maqolada ta'lim muassasasini zamonaviy boshqaruv asosida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning tashkiliy xususiyatlari hamda innovatsion boshqaruv faoliyati masalalari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, inson kapitali, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion rivojlantirish, integratsiya, uchinchi Renessans, ilm-fan, ta'lim, innovatsiya, texnologiya, zamonaviy kadrlar, demokratik jamiyat, taraqqiyot.*

В статье рассматриваются организационные особенности профессиональной ориентации учеников на основе современного менеджмента образовательного учреждения, а также деятельность инновационного менеджмента.

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, человеческий капитал, информационно-коммуникационные технологии, инновационное развитие, интеграция, третья Ренессанс (Возрождение), наука, образование, инновации, технологии, современные кадры, демократическое общество, развитие.*

The article discusses the organizational features of professional orientation in students based on modern management of an educational institution, as well as the activities of innovative management.

Key words: *new Uzbekistan, human capital, information and communication technologies, innovative development, integration, the third Renaissance, science, education, innovation, technology, modern personnel, democratic society, development.*

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish ko'plab olimlar, ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari va xalqaro maqomga Ega tashkilotlar: YUNESKO, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(OECD)ning diqqat markaziga aylandi. Asr boshida BMT hujjatlarida ta'kidlanishicha: "Eng muhim resurslar faqat bilimdir, ya'ni, odamlarning ixtirosi, tasavvur va istak xoxishlaridir. Aniq-ki, ularsiz tinchlik sari barqaror taraqqiyotga erishish mumkin emas. Bunda, ta'lim muhim rol o'ynaydi"[1].

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta maktab va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi



darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq umumta'lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o'quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish kabi xalq ta'limining strategik maqsadlari belgilangan [2].

Yangi qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq boshlang'ich ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Unga ko'ra tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi va tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralarni amalga oshiriladi. O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi. [3].

Kasb-hunarga yo'naltirish-umuminsoniy madaniyatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismlaridan biri sifatida yosh avlodning kasbiy tiklanishi, tabiat in'om etgan (tug'ma) qobiliyatlarini rivojlantirish ko'maklashish, insonga kasbiy o'zligini anglashiga yordam beruvchi maxsus chora-tadbirlar majmuasi bo'lib, uning imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, bandlik va maqbul ta'lim turini tanlash ishlarida, turli xil malakali kasb mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlarda jamiyatning g'amxo'rligi sifatida namoyon bo'ladi. [4.15-bet]. Kasb-hunarga yo'naltirish ishining bosh maqsadi o'ziga xos usullar yordamida mutaxassisning mehnat bozorida raqobatbardoshligini kuchaytirish va aholining samarali bandligini oshirishga erishishdan iborat. Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi - yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kelgusi ta'lim yo'nalishini tanlashiga yoki shaxsning psixofiziologik xususiyatlari, qiziqishi, qobiliyati, moyilliklari va jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda mehnat qilish sohasini tanlashga tayyorlashdan iborat.

Kasb-hunarga yo'naltirish quyidagi ikki asosiy vazifani hal qilishga qaratilgan:

- mehnat imkoniyatlarini oqilona taqsimlash va foydalanish hisobiga;
- mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustaxkamlash, shaxsni ijtimoiy va iqtisodiy himoyalash, chunki o'z qiziqishlari, moyillik va imkoniyatlariga mos kelgan kasbni tanlagan inson ham kasbiy, ham moddiy jihatdan tezroq uni o'zlashtiradi va sezilarli natijalarga erishadi.



Shu maqsadda, A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot institutining Xalq ta'limi tizimi statistikasini shakllantirish va tadqiq qilish ilmiy-tadqiqot bo'limi tadqiqotchilari 2020-2021 o'quv yilida umumta'lim maktablari bitiruvchilarining bandligini o'rganish maqsadida, Oliy ta'limga qabul qilingan bitiruvchi o'quvchilar, kasb-hunarga yo'naltirilgan bitiruvchi o'quvchilar, vaqtincha ishlamaydigan potensial (aktiv) bitiruvchi o'quvchilar, xorijga ishlashga ketgan bitiruvchi o'quvchilarning statistik tahlilini qilish bo'yicha, "Siz ishlayotgan maktabda 2020-2021 o'quv yili bitiruvchilarining bandligi qanday ta'minlanmoqda (foizda)?" nomli elektron so'rovnoma o'tkazdi, ushbu so'rovnomada jami 20072 nafar qatnashgan respondentlar ovoz berishdi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, 4 ta yo'nalish bo'yicha bitiruvchi o'quvchilar baholandi, ya'ni:

2020-2021 o'quv yilida umumta'lim maktablari bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinganlari ulushining eng yuqori ko'rsatkichi 21-40 foizgacha ekanligi, eng quyi ko'rsatkich esa 81-100 foizgacha ekanligi qayd etilmoqda. Natijalardan ko'rinib turibdiki, bitiruvchilarning umumiy bilim darajasi ancha past.

Kasb-hunarga yo'naltirilgan bitiruvchi o'quvchilar ulushining eng yuqori ko'rsatkichi 1-20 foizgacha ekanligi ko'rsatilmoqda. Eng quyi ko'rsatkich esa 81-100 foizgacha ekanligi qayd etilmoqda. Bitiruvchilarning kasb-hunarga bo'lgan qiziqishi, hoxishi, intilishi mazkur ko'rsatkichning salbiy bo'lishiga olib kelmoqda.

Vaqtincha ishlamaydigan potensial (aktiv) bitiruvchi o'quvchilar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bitiruvchilarning 1-20 foizgacha bo'lgan qismi vaqtincha xech qayerda ishlamaydigan, lekin ishlashga hoxishi mavjud bo'lgan yoshlarni tashkil etadi.

Xorijga ishlashga ketgan bitiruvchi o'quvchilarning ulushini tahlil qilganimizda, eng yuqori ko'rsatkich 1-20 foizgacha ekanligi qayd etilmoqda. Bu borada eng quyi ko'rsatkich 61-80%, 81-100% foiz ekanligi ko'rsatilmoqda. Ya'ni bitiruvchilarining 61 foizdan yuqori bo'lgan qismi mamlakatimizda o'z faoliyatlarini (o'qish, ish, vaqtincha bekor) yuritishmoqda.

Tahlil natijalaridan ko'rinadi-ki, o'quvchi yoshlarni maktabdan boshlab, kasb-hunarga yo'naltirish bugungi kunda dolzarb masala. Kasb-hunarga yo'naltirish ishining pirovard natijasi ijtimoiy-iqtisodiy omil bo'lib, shaxsga ham, davlatga ham real foyda keltiradi. Kasb-hunarga yo'naltirishda quyidagi tamoyillar asos qilib olingan:

- kasb-hunarga yo'naltirish xizmatlarining majmuaviy xarakterdaligi;
- iqtisodiy rivojlanish va mehnat bozorini o'rganish va prognoz qilish orqali jamiyat va shaxs qiziqishlarini muvofiqlashtirish;
- shaxsni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis qilish shakli, uslublari va vositalarining ilmiy asoslanganligi;
- O'zbekiston fuqarolarining va (lozim bo'lganda) boshqa davlat fuqarolarining o'qish, ish joyi, yoshi, jinsi, millati va diniy dunyoqarashidan qat'iy



nazar kasb-hunarga yo‘naltirish xizmatlaridan foydalanishga teng huquqligi;

- kasb tanlash yoki almashtirish, ta’lim turi va ishga joylashish imkoniyatlariga nisbatan kasbiy va boshqa axborotlarning tushunarligi;

- kasb-hunarga yo‘naltirish xizmatlari xodimlarining kasbiy axloq normalariga rioya etishligi.

Kasbga yo‘naltirish quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladi: Kasbiy axborot, kasbiy maslahat, kasbiy tanlov va saralash, kasbiy moslashish. Kasbiy axborot - ma’lum bir kasbni egallash xoxishi bo‘lgan shaxsga, turli mutaxassisliklarni egallashning shakl va sharoitlariga, kasbiy malakalarning o‘rish imkoniyatlariga mehnat bozorining holati va ehtiyojiga, kasbiy qiziqishlarning shakllanishiga, shaxsning istak va ko‘nikmalariga quyilgan talablar hamda zamonaviy kasblarning istiqboli va mazmuni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, targ‘ibot qilish choratadbirlaridir. Kasbiy maslahat - kasb tanlash yoki faoliyat turini o‘zgartirishda yordamga muhtoj bo‘lgan shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, shaxsiy fazilatlar, kasbiy qiziqishlari, moyilligi, sog‘ligi va mehnat bozori ehtiyojlarini o‘rganish asosida psixologik-maslahatchi bilan ilmiy tashkil etilgan o‘zaro muloqot tizimidan iborat. Kasbiy tanlov va saralash - kasbiy faoliyatning alohida turlariga yaroqlilik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan shaxsning psixofiziologik xususiyatlari (tanlash) yoki aniq bir kasbga bo‘lgan psixofiziologik me’yori talablar (saralash) asosida shaxsni har tomonlama o‘rganish tizimidir. Kasbiy moslashish - ishlab chiqarishda kasbiy faoliyatning ijtimoiy-psixologik va tashkiliy-texnik sharoitlariga shaxsni moslashtirishga, uni muvofaqqiyatli ravishda kasbni egallashi uchun shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan choralarning majmuaviy tizimidir.

Kasbga yo‘naltirish – bu o‘quvchining butun hayoti uchun o‘zi tomonidan kasb tanlashi emas, balki, inson kasbiy faoliyatini boshlaganda, o‘zini unda namoyon eta olishi uchun shaxsiy ichki resurslarini faollashtirishi hamda kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlanishning shakllanishidir. [4.43-bet]. Yuqorida qayd etilgan dasturning ikkinchi bosqich vazifasi “Kim bo‘lsam ekan?” deb nomlanib, u boshlang‘ich kasb-hunarga yo‘naltirishdir. Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari boshlang‘ich sinflarda (1-4 sinflar) kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun (6-9 yoki 7-10 yoshlilar) tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Boshlang‘ich kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy maqsad va vazifalari:

- kichik maktab yoshida o‘qishga va mehnatga vijdonan munosabatda bo‘lishni shakllantirish, ularning jamiyatda va inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunish;

- ota-onasining va boshqa oila a’zolarining hamda turli kasblarga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish, “Kasblar olami” bilan tanishtirish;

- o‘quv, mehnat, ijodiy va kommunikativ faoliyatda malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish;

- kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning psixologik-pedagogik tashxisi, umumiy psixologik, aqliy va jismoniy rivojlanishi korreksiyasi (boshlang‘ich sinflarda)



o'qish va ushbu bosqichda kasb-hunarga yo'naltirishning vazifalari bilan bog'liq);
– ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-xarakat, verbal va mantiqiy tafakkumi, tasavvumi, ko'rgan va eshitgan ma'lumotlarni yodda saqlash va qayta tiklashning oddiy va murakkab operatsiyalarini rivojlantirish (kasbiy ma'lumotni qabul qilish bilan bog'liq);

– umumiy o'quv, mehnat va kommunikativ malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish (biror bir kasb uchun ahamiyatli bo'lgan o'quv fanlarini o'zlashtirishi bilan bog'liq);

– kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning iqtidorini, qobiliyatini aniqlash, ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqish (iqtidorli bolaning boshlang'ich sinflarda va oilada ta'lim va tarbiyasi; shuningdek, kelgusida ixtisoslashtirilgan liuey, maktab yoki internatlarda o'qish imkoniyati bilan bog'liq).

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining uslubi va vositalari:

– kasb-hunarga yo'naltirish haqida xikoya, suhbat, she'r, topishmoqlar, kitoblar, (kichik maktab yoshi davriga tushunarli tarzda kasbiy ma'lumot berish);

– kasbga yo'naltirish mavzusida rasm (kartochka), plakatlar, slaydlar, videofilmlar namoyish qilish (kichik maktab yoshi davriga tushunarli tarzda ko'rgazmali-obrazli kasbiy ma'lumot berish);

– rivojlantiruvchi va o'rgatuvchi kasbiy o'yinlar (kichik maktab o'quvchilariga o'yin, o'quv va kommunikativ faoliyatlari bilan birgalikda kasbiy ma'lumot berish);

– o'quv darslari, “mehnat darsi”, “kasbga yo'naltirish darslari” konkurslar (mehnat va ijodiy, o'quv faoliyat jarayonida kasbiy ma'lumot);

– ota-onalar uchun suhbat va topshiriqlar (bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha tavsiyalari, kasbiy maslahat, kasbiy ma'rifat, ularning bilimlarini mustaxkamlash va rivojlantirish, mehnat malakalari va ko'nikmalarini oilaviy sharoitda tarbiyalash).

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari ta'lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jarayondir.

Zero, kasbiy ta'lim-tarbiyadan asosiy maqsad - bu umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchi va bitiruvchilarini ongli va mustaqil ravishda kasb-hunar tanlashga tayyorlash, kelgusi ta'limning yo'nalishini va kasb-hunar egallashning usullarini aniqlashgan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1993 yil uchun dunyodagi ta'lim sohasidagi vaziyat haqida hisobot. YUNESKO, 1993 yil. 16-bet.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan – Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. <https://lex.uz/>

4. A.A.Turg'unov. Kasb-hunarga yo'naltirish. O'quv qo'llanma. – T., 2019. 208-bet.



UMUMKASBIY FANLARNI O'RGANISH JARAYONIDA BO'LAJAK MUTAXASSISNING TAFAKKUR MADANIYATINI MUVAFFAQIYATLI RIVOJLANTIRISH

M.E.JUMAYEV,

TDPU. p.f.n., prof.

Z.A.ARTIKBAYEVA,

TDPU. p.f.n.dotsent

G.T.TAGANMURATOVA,

TDPU magistranti

Maqolada talabalar ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda va intellektual salohiyatini oshirishda intellektual xaritalardan foydalanish yoritilgan. Mazkur metodning tashkiliy, mazmun, faoliyatli, baholovchi-natijaviy tarkibiy qismlari mazmuni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: talaba, ilmiy tadqiqot, intellekt-xarita, tashkiliy, mazmun, faoliyatli, idrok xarita, vazifa, tahlil.

В статье освещено использование интеллектуальных карт в развитии научно-исследовательской деятельности и повышении интеллектуального потенциала студентов. Раскрыто содержание организационных, содержательных, функциональных, оценочно-результативных компонентов данного метода.

Ключевые слова: студент, исследование, интеллектуальная карта, организационная, содержание, деятельность, когнитивная карта, задача, анализ.

The article highlights the use of smart cards in the development of research activities and increasing the intellectual potential of students. The content of organizational, substantive, functional, evaluative and effective components of this method is disclosed.

Key words: student, research, intellectual map, organizational, content, activity, cognitive map, task, analysis.

Ma'lumki, oliy maktab sharoitlarida o'quv faoliyatining maqsadlaridan biri o'quv-bilish faoliyati davomida BMTM1 ni rivojlantirishdan iborat. Bunday maqsad yechilishi talabaning sub'ektning o'quv faoliyati mavqesida bo'lishligi bilan bog'liq bo'lgan shaxsiyatli va bilimga oid masalalarning qo'yilishini talab qiladi. O'qitish jarayonida bu mavqe doimo o'zgarib turadi, chunki o'quv faoliyati individual usullarining shakllanish jarayonida bilishga oid qiziqishlar va ehtiyojlar o'zgaradi, motivatsiya sohasi strukturasi murakkablashadi, o'qishga motivatsiyali-qadriyatli munosabatda bo'lish kuchayadi, bilimlar, o'quv masalalarini yechish usul va uslublarini o'zlashtirishda mustaqillikning ahamiyati oshadi, olingan bilimlar bilan ishlash uqurlari kuchayadi, o'zini o'zi to'g'rilash va o'zini o'zi boshqarish qobiliyati rivojlanadi.

BMTM ning rivojlanishida markaziy bo'g'ini motivatsiya doirasi – motivlarning murakkab tizimidan iborat bo'lib, u odamning istagan faoliyatini,



shu jumladan, umumqo'shin fanlari mazmunini o'zlashtirishdagi o'quv faoliyatini ham rag'batlantiradi, tartibga soladi va quvvatlab turadi.

Motivatsiyaning emotsional metodlari o'quv-bilish o'yini davomida taqdirlash va tanbeh berish; yorqin ko'rgazmali-obrazli tasavvurlar yaratish; muvaffaqiyat holatini yaratish; rag'batlantiruvchi baholash; topshiriqni erkin tanlash; imitatsiya (taqlid) vositalarini oqilona va samarali qo'llash; jangovor holatga yaqin holat yaratish; taklif qilinayotgan masalalarning kutilmaganligi, dinamikligi va muvofiqlashtirilganligi va h.k.

Tafakkur madaniyatini rivojlantirish motivatsiyasining bilish metodlari jumlasiga muammoli vaziyatlarni yaratish; masalalar va kiritiladigan topshiriqlarning muqobil (alternativ) yechimlarini izlashga rag'batlantirish; ijodiy topshiriqlarni bajarish; "aqliy hujum"; boshlang'ich ma'lumotlari yetarlicha bo'lmagan topshiriqlar; boshlang'ich ma'lumotlari yetarlicha bo'lmagan topshiriqlar; yechimlarga ega bo'lmagan topshiriqlar va h.k.

Motivatsiyaning irodaviy metodlari talabalarda va tinglovchilarda o'z bilish va amaliy faoliyatida amalga oshirib bo'ladigan maqsadlarni istash va qo'yish, ijro qilib bo'ladigan qarorlar qabul qilsin, qarorlarni bajarish (bular tizimga aylansin), o'zining barcha kuchlarini qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratish; o'z amallarini baholashni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Bilish faoliyatiga motivatsiyaning ijtimoiy metodlari talabalarda va tinglovchilarda Vatanga foydali bo'lish istagini rivojlantirish; o'qishda o'rtoqlari orasida o'zaro yordamni yaratish; o'qitishda aloqalar, hamkorlik va o'zaro ta'sirlashuvni izlash; o'quv fanlarini o'rganish jarayonida raqobatlashish, kurashish va musobaqalashish vaziyatini yaratish, qism (guruh) tarkibida o'quv-bilish faoliyatining natijalaridan manfaatdorlik, o'zaro tekshiruv, taqriz qilish va boshqa yaratishga yo'naltirilgan.

Shakllantiruvchi eksperiment davomida o'qitishning yuqorida bayon qilingan metodlarini qo'llash talabalar va tinglovchilarni ularda bilish faolligi, materialni o'rganishga ehtiyojni, amallar usullarini egallashga rag'batlantirish imkonini beradi, qo'yilgan maqsadga erishish zarurligini dolzarb qiladi va h.k. Keltirilgan o'qitish metodlari jamoaviy ish, izlanish, ishtirok etish, kuchlar va emotsiyalarni jamoaviy jamlash uchun qulay muhit yaratishga yordam beradi va bular motivatsiyaning rivojlantirish bo'yicha maqsadlariga erishishni osonlashtiradi. O'qitish imkoniyatlarini amalga oshirish uchun mayl (xohish) funksiyasi bilan bog'liq quyidagi uslublar xizmat qiladi: faoliyat maqsadlarini tushuntirish, axborotli va muammoli savollarni qo'yish; muammoli vaziyatlarni yaratish, manbalar bilan ishlashni tashkil etish, bilimlarni amaliyotda qo'llash, mashg'ulotlarning qiziqarli va o'yinli shakllaridan foydalanish va h.k.



Ko'rgazmali, didaktik va texnik o'qitish vositalarini qo'llash bilan bog'liq uslublar yuqorida tilga olingan uslublar guruhlarini bilan chambarchas bog'liqdir.

Ko'rib chiqilgan motivatsiya vositalarining har biri o'qitish jarayonida har bir o'qituvchi uchun o'z xususiyatlariga ega bo'ladi. Ular qo'llanish sharoitlari va o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liqdir. Bularning hammasi BMTM motivatsiya sohasini rivojlantirishning tashkiliy-faoliyatli aspektini belgilab beradi. Mazkur aspektning (jihatning) tarkibiy qismlari quyidagilardir:

- mashg'ulotlarning qo'yilish maqsadining talabalar uchun tushunarli bo'lishi;

- mashg'ulotning safarbar etuvchi (jalb etuvchi) boshlanishi (o'quv mashg'ulotiga ijobiy kayfiyat yaratish);

- o'quv materialida o'qituvchi tomonidan bosh fikr, g'oya, yetakchi nazariyani ajratib ko'rsatilishi;

- o'zini nazorat qilish, o'zini tahlil qilish, o'zini baholash uchun sharoitlar yaratish;

- oldingi va keyingi mashg'ulotlar bilan bog'lanishni ajratish;

- mashg'ulotda umumta'lim uquv va malakalarini shakllantirish;

- auditoriya xususiyatlarini hisobga olish;

- o'qituvchi va tahsil oluvchilarning birgalikdagi o'quv-bilish faoliyatida o'zaro ta'sirlashuvni amalga oshirish;

- talabalar va tinglovchilarning o'qituvchining mashg'ulotdagi faoliyatiga munosabatlari (xayrixoh, loqayd, yoqtirmadi va h.k.);

- bilish faoliyatini – individual, juftlikda, guruhda, jamoada amalga oshirilishi;

- amaliy yo'nalganlik va ahamiyatlilik (kasbiy faoliyatga singitilganlik);

- o'quv mazmunining mashg'ulot maqsadlariga, talabalar va tinglovchilarning mavjud imkoniyatlariga muvofiqligi;

- o'quv faoliyati xarakteri (reproduktiv, konstruktiv, ijodiy);

- mashg'ulot maqsadlariga (o'qituvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi maqsadlarga) erishish darajasi;

- original (individual) uslublar.

Bular bilan bir qatorda, talabalarda OVD ni o'rganish motivatsiyasining shakllanishini qiyinlashtiruvchi omillarni ham hisobga olish zarur, bular jumlasiga quyidagilar kiradi: bir xil fanlarga boshqa fanlar zarari hisobiga barqaror qiziqish; o'quv jarayonining bir xildaligi; o'quv-bilish faoliyati shakllari. vositalari va turlarini yetarlicha tanlamasligi; o'quv faoliyatining muammoli-izlanishli, tadqiqiy va ijodiy shakllari sonining yetarli emasligi; o'qituvchilar tomonidan qattiq nazorat metodlariga salbiy munosabat, kasbni tanlash vaziyatga qarab tanlov motivlarining saqlanib qolishi.



Idrok va kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun mashg'ulotda tahsil oluvchilarga nimani majburiy tartibda ko'rsatish, narsalar va hodisalarda qo'yilgan masalani yechishga ijobiy yoki salbiy ta'sir etuvchi qanday xossalarni ochib berish lozimligini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak mutaxassisning muhim xislati uning joyda aniq orientir (yo'nalish) ola bilish uquvi hisoblanadi. Shuning uchun mashg'ulotdagi harakatda, ular davomida harakatlanishda va qaytishda orientirlanish elementlaridan foydalaniladi.

Talabalarning kuzatuvchanligi joyda topografik va taktik orientirlanishni o'tkazishda o'z ichiga kuzatish texnikasi bo'yicha quyidagilarni o'z ichiga oladigan mashqlar tizimi orqali rivojlantiriladi: rayonlarni sektorlar va zonalarga bo'lish uquvi; orientirlarni ajratish va diqqatni ayrim uchastkalarga ajratish; shartli dushmanning ob'ektlarini va ularning chegaralanish belgilarini topish; kuzatish natijalarini to'g'ri qayd etish va xabar berish; texnik kuzatish vositalarini qo'llash.

Barcha bo'lajak mutaxassislar joyni o'rganayotganlarida karta bilan ishlashlari, unda tegishli vaziyatni aks ettirishlari munosabati bilan kartani o'qish uquvi katta ahamiyatga ega. Topografik kartani o'qish, u bo'yicha real joyning obrazini yaratish – yetarlicha murakkab masala va unga darhol erishib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan joy maketida mashg'ulotlar o'tkaziladi.

O'quvchilar oldiga qo'yiladigan muhim vazifalardan biri talabalar va tinglovchilarning o'z ishlarini ma'lum vaqt ichida amalga oshirishni o'rgatishdan iborat. Biroq o'qitishning dastlabki bosqichlarida masalani tushunib olish, vaziyatni baholash, qaror qabul qilish kabi ishlarga biroz ko'proq vaqt ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Keyingi bosqichlarda, ayniqsa, qo'mondonlik-shtab o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishda tahsil oluvchilarni qo'yilgan masalani yechishning real "vaqt" sharoitlarida bo'lishlariga erishish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil.
2. Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy- tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.
3. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2016 yil
4. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil



O'QUVCHILAR YUTUQLARINI BAHOLASH MILLIY TIZIMINI JORIY ETISHDA XOORIJIY TAJRIBALAR (HXINDISTON VA VETNAM MISOLIDA)

A.A.ISMAILOV,

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi direktori

Maqolada keng ko'lami milliy baholash dasturlarini joriy etishda Xindiston va Vetnam tajribalari tahlil qilinadi. Milliy baholashning o'ziga xos xususiyatlari, asosiy jihatlari, maqsadlari, tanlab olish, baholash davriyligi va vositalari, o'quvchilarning yutuqlari va o'qituvchilar faoliyatining o'zaro bog'liqligi hamda natijalardan rivojlanish maqsadida foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi.

Tayanch iboralar: Milliy baholash, o'quvchilar yutuqlari, vositalar, xorijiy tajriba, natijadan foydalanish.

The article analyzes the experiences of India and Vietnam in implementing the national large-scale assessment programs. Specific characteristics, key aspects of assessment at the national level, objectives, sampling, frequency and tools of assessment, relevance of student achievement with teachers' activities, as well as issues of using obtained data for the development purposes will be considered.

Key words: National assessment, student achievements, tools, foreign experience, use of results.

В статье анализируется опыт стран Индии и Вьетнама в реализации широко-масштабных национальных программ оценки. Будут рассмотрены особенности, ключевые аспекты оценки на национальном уровне, цели оценки, выборки, периодичность и инструментарий оценки, зависимость достижения учащихся с деятельностью учителей, также вопросы использования результатов оценки в целях развития.

Ключевые слова: Национальная оценка, достижения учащихся, инструментария, зарубежный опыт, использование результатов.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni asosida o'quvchilarning bilim darajasini baholash bo'yicha xalqaro dasturlarda doimiy ishtirok etish, shuningdek, PISA baholash dasturi reytingida O'zbekistonning 2030 yilga kelib, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kirishiga erishish maqsadlari ilgari surilgan [1, 1b].

Hukumatning tegishli qaroriga muvofiq xalqaro tadqiqotlarda umumta'lim maktablarining ishtirokini ta'minlash, ta'lim tizimini atroflicha tahlil qilish, mamlakatdagi ta'lim sifatini boshqa davlatlar bilan solishtirish bilan bir qatorda ta'limni baholash milliy tizimini takomillashtirish vazifalari belgilangan [2, 1b].

O'qituvchilar, ba'zida ota-onalar, maktab direktorlari va hattoki o'quvchilarning o'zlari ham o'quvchilarning ta'limdagi yutuqlari haqida kontekst ma'lumotlarni talab qilishlari mumkin. Bu kabi ma'lumotlar ta'limdagi natijalarning



uydagi sharoitlar, o'qituvchilarning tayyorgarligi, o'quv dasturlariga munosabati va o'quv materiallarini yetkazib berish salohiyati kabi tashqi omillar bilan bog'liqligi haqida tushunishga yordam beradi.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan tegishli vazirlik va idoralar hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS xalqaro tadqiqotlari joriy etilmoqda. Olib borilayotgan tadqiqotlarning tajribalarini milliy ta'lim tizimiga singdirish, ular asosida ta'lim jarayonlarini tahlil qilish hamda qaror qabul qiluvchilarni ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash dolzarb ahamiyatga ega.

Xorijiy olimlar V.Grini va T.Kellagan, Xindiston olimlari Prakash, Gautam, Bansal va Shukla kabilarning olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, Xindiston hukumatini axborot bilan ta'minlash maqsadida xar bir shtatda ta'lim sifati haqidagi asosiy ma'lumotlarni olishga qaratilgan baholash tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu baholash tizimi 2010 yilda mamlakatda umumiy boshlang'ich ta'limdagi yutuqlarga yo'naltirilgan Sarva Shiksha Abhiyan (SSA) nomli davlat dasturining bir qismi bo'lgan. Avvallari yutuqlarni baholash keng qamrovli dasturlari hukumatning boshlang'ich ta'limga oid loyihalarining bir qismi sifatida mamlakatning alohida tumanlaridagi muayyan maktablarni o'z ichiga olgan (Prakash, Gautam and Bansal, 2000).

Mazkur loyihalar doirasida, matematika va til fanlaridan o'rtacha baholar tumanlar, fan sohalari va o'qitish sinflari miqyosida solishtirilgan. Baholash shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar til bo'yicha yaxshiroq natijaga ega bo'ldilar, shuningdek, kattaroq yoshdagi o'quvchilarning yutuqlari kichikroq yoshdagi o'quvchilarning yutuqlariga qaraganda unchalik ta'sirli bo'lmadi. Aksariyat hollarda, tumanlarda o'g'il bolalar va qiz bolalarning matematika va til bo'yicha natijalarida statistik jihatdan sezilarli farq uchramadi. Ushbu tumanlar darajasidagi baholashga qo'shimcha ravishda, 1990 yillarning boshida mamlakatning 22 ta shtatlarida keng qamrovli baholash dasturi amalga oshirilgan (Shukla and others, 1994).

Baholash davriyligi har 3 yilda olib borilgan bo'lib, 5-sinf, 3-sinf va boshlang'ich ta'limning oxirgi sinflarida xam o'tkazilgan.

Til va matematika bo'yicha ta'limdagi yutuqlarni baholash dasturlari Ta'limdagi tadqiqotlar bo'yicha milliy kengash (Deli) tomonidan tuman darajasida ma'lumot to'plashni nazorat qiluvchi institutlarning qo'llab-quvvatlovi orqali amalga oshirilgan.

Baholash maqsadlarini belgilashda kontingent muhim masala hisoblanib, maktab va o'quvchilarni tanlab olish yoki umumiy qamrab olishni belgilash lozim bo'lib, Xindistonda baholash jarayonlari tanlab olish orqali bajarilgan.

Tahlil. Xar bir shtatning 5-sinf o'quvchilarning natijalari haqida hisobot tayyorlanib, unda o'quvchilarning test topshirig'iga bergan to'g'ri javoblarning foizlari taqdim etilgan.

Natijalardan foydalanish. 5-sinflarning natijalari gener, shaxar yoki qishloq maktablariga tegishliligi bo'yicha sezilarli bo'lmagan farqlarni ko'rsatgan. Ushbu ma'lumotlar ta'limdagi yutuqlar darajasining o'zgarishini monitoring qilish, ta'lim



muhitiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash maqsadlarida foydalaniladi. Ushbu ma'lumotlar o'quvchilarning yutuqlarini inobatga olishda yordam beradi.

Vetnamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yutuqlariga urg'u bergan holda ta'lim sifatini o'lchash maqsadlari ilgari surilgan. Kichik qamrovli baholash bo'yicha dastlabki dasturlar 1998 yildan 2000 yilgacha 3-sinf va 5-sinflarda o'tkazilgan, lekin vaqt omilini hisobga olgan holda ta'limdagi tendensiyalar monitoringini o'tkazishdagi asosiy nuqtalarni belgilashga qaratilgan ma'lumotlar bilan mos kelmagan. Baholashda 5-sinf o'quvchilarining Vetnam tilida o'qish va matematika fanidan yutuqlarini baholash nazarda tutilgan. Ta'limdagi yutuqlarni baholash testlari, o'quvchilar, o'qituvchilar va maktab rahbarlari uchun so'rovnomalar baholash vositalari sifatida joriy etilgan.

Baholash jarayonlari bo'yicha xar bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Shundan kelib chiqqan holda, ba'zi mamlakatlarda baholash funksiyalarini ta'lim vazirliklari bajarsa, qaysidir mamlakatlarda milliy tadqiqot markazlari yoki ta'lim boshqaruvi organlarining kengashlari, universitetlar yoki imtixon komissiyalari bajarishi mumkin[3, 131].

Vetnamda esa, baholash dasturlari Ta'lim va o'qitish vazirligi tomonidan boshqa milliy agentliklar, Jahon banki, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligining xalqaro rivojlanish departamenti qo'llab-quvvatlovi asosida amalga oshirilgan. Tanlab olish modeli shunday bajarilganki, unga ko'ra milliy umumiy qamrov hamda mamlakatdagi 61 ta provinsiyalarning xar birining umumiy qamrovi jihatidan reprezentativligini ta'minlashga qaratilgan.

Tahlillar hududlar bo'yicha o'quvchilarning yutuqlari va maktabga oid ma'lumotlar bo'yicha to'qnashuvlar jadvali, ma'lumotlarning korrelyatsion va omillarga asoslangan tahlillari, test topshiriqlari bo'yicha zamonaviy test nazariyasining joriy etilishi va o'quv yutuqlari bilan bog'liq omillarni aniqlash uchun ierarxik chiziqli modellashtirishlarni o'z ichiga olgan.

Natijalardan foydalanish. Yutuqlarni baholash natijalari asosida Hukumat tomonidan ta'lim sohasiga oid 40 ta siyosiy takliflar ishlab chiqildi. O'qish bo'yicha testlarni bajarish natijalarini tahlil qilish uchun o'qish savodxonligini egallash maxoratining oltita darajalari o'rnatildi:

1-daraja: O'quvchilar tasvirlar yordamida so'zlarning tegishlilikini topadi yoki ular asosida gap tuzadi. O'z faoliyatida tasvirlar bilan bog'liq so'z boyligi cheklangan.

2-daraja. O'quvchilar qisqa takroriy gaplardagi ifodalangan matnning joylashuvini aniqlaydi va tasvirlar yordamisiz matnlar bilan ishlay oladi. Matn qisqa gaplar va takroriy so'zlarda iborat jumlar bilan cheklangan.

3-daraja. O'quvchi uzunroq matn parchalarini o'qiydi, tushunadi, matnda avvalgi va keyingi ma'lumotlarni aniqlaydi. Jumlamani o'zgartirishni va murakkabroq tuzilgan gaplarning ma'nosini tushunadi. Kengroq so'z boyligiga ega bo'ladi.

4-daraja. O'quvchilar matnning turli qismlaridagi ma'lumotlarni o'zaro bog'lay oladi. Xulosalar va turli tafsirlar chiqarish uchun matnni tanlaydi va bog'laydi.



5-daraja. O'quvchi matn va hujjatlarda turli ko'rinishda va turli usullar, to'g'ridan-to'g'ri keltirilmagan ma'lumotlar asosida aloqa o'rnatadi va muallifning fikrini aniqlaydi.

6-daraja. O'quvchi berkitilgan ma'noni tushunish hamda turlicha mazmunli tafsirlar chiqarish uchun matn bilan tashqi ma'lumotlarni bog'laydi. Muallifning fikri, munosabat, qadriyat, aqidalar, shiorlar, tasavvur va dalillarni aniqlaydi.

Dasturni amalga oshirish jarayonida, o'quvchilarning o'qish va matematika bo'yicha testlarni bajarish darajalarida sezilarli farqlar kuzatildi. Masalan, Vetnamning Xazyang va Tenzyang provinsiylarida Danang provinsiyasidagiga nisbatan kam sonli o'quvchilar o'qishning ikkita yuqori darajasiga erisha oldilar (1-jadval).

Uydagi muhitning asosiy tavsiflarini inobatga olgan holda o'qituvchilarning tavsiflari va o'quvchilarning baholash natijalari o'rnatilgan bog'liqlik tahlil qilindi (2-jadval).

1-jadval. O'quvchilarni o'qish savodxonligi dajaralari bo'yicha baholashdagi foizlar[8].

Proviinsiya	Ko'rsatkich nomi	O'qish savodxonligi darajalari (1-6)					
		1	2	3	4	5	6
Xazyang	Foiz	7,5	22,1	27,4	18,7	18,5	5,7
	Standart xatolik	1,66	3,23	3,06	2,97	3,07	2,09
Tezyang	Foiz	2,8	13,4	28,8	20,2	22,4	12,5
	Standart xatolik	0,7	2	2,49	1,8	2,46	2,78
Danang	Foiz	0,8	5,7	15,4	21,3	32,9	24,1
	Standart xatolik	0,34	0,88	1,79	1,89	1,98	3,23
Vetnam	Foiz	4,6	14,4	23,1	20,2	24,5	13,1
	Standart xatolik	0,17	0,28	0,34	0,27	0,39	0,41

Muhokama. Xindistonda mamlakatning 22 ta shtatlarida avvalgi keng qamrovli baholash jarayonlarida o'quvchilar va o'qituvchilarga birgina test topshiriqlari taqdim etilgan. O'quvchilarning o'rta natijalari juda past bo'lgan shtatlarning birida faqatgina 1/70 o'qituvchi arifmetikaga oid 40 ta savollarning barchasiga to'g'ri javob berib, testlarni bajara olgan. Testda qatnashgan o'qituvchilarning 10 foizi test topshiriqlarining yarmidan kamrog'ini to'g'ri bajarganlar (Shukla and others, 1994).

Milliy baholash natijalari davlat dasturi doirasida samaradorlik monitoringini o'tkazishga yordam berish maqsadida foydalaniladi. Boshqa ko'pchilik dasturlardan farqli ravishda, o'quvchilarni baholash ular to'g'ri javob bergan topshiriqlarning umumiy foizi shaklida taqdim etiladi. Ayniqsa, ta'limdagi yutuqlari past bo'lgan shtatlarga alohida e'tibor qaratish nazarda tutiladi. Reyting tadqiqotlarida ishtirok etgan maktablar nuqtai nazaridan qaraganda, mustahkam ta'lim natijalariga ega bo'lgan ba'zi shtatlar (masalan, Kerala va Ximachal-Pradesh) 5-sinflarning test natijalari bo'yicha nisbatan past natijani olganlar, shu bilan birga, reyting tadqiqotlarida ishtirok etgan maktablarga nisbatan past natijaga ega shtatlar esa (masalan, Bixar, Orissa va G'arbiy

Bngaliya) yuqori natijalarni qo‘lga kiritganlar[3, 130].

Vetnamdagi testlar Ta’limdagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining 1991 yildagi o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha topshiriqlarini o‘z ichiga olgan bo‘lib (Elley, 1992, 1994), Vetnam o‘quvchilarining natijalarini boshqa mamlakat o‘quvchilarining natijalari bilan solishtirish uchun foydalanilgan. O‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun bir xil testlar taqdim etilgan. Test natijalariga ko‘ra, 12 foiz o‘quvchilar 30 foiz o‘qituvchilarga nisbatan yuqoriroq baholarni qo‘lga kiritgan. Maktablarning 3 foizdan kamrog‘i kutubxona va suv o‘tkazgich kabi eng zaruriy maktab resurslariga ega bo‘lgan.

2-jadval. O‘qituvchilar va o‘quvchilarning matematika bo‘yicha yutuqlarining tanlangan o‘zgaruvchilari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik[8].

O‘qituvchiga oid o‘zgaruvchilar	Oddiy korrelyatsiya	O‘quvchining uydagi muhitining asosiy tavsiflari inobatga olinganidan keyingi xususiy korrelyatsiya
O‘qituvchining jinsi	0,17	0,14
Akademik ta’lim	0,08	0,04
Matematika bo‘yicha bilim	0,29	0,25
“Ilg‘or o‘qituvchi” sifatida toifalangan	0,18	0,13
Sinfning resurs ta’minoti	0,24	0,15
Tayyorgarlik va baholashga sarflangan soat	0	0,01
Ota-onalar bilan uchrashuvlar davriyligi	0,05	0,04
Nazorat tekshiruvchilarining soni	0,13	0,11

O‘quvchilarning 80 foizdan ko‘prog‘i sinf xonasidagi doska, mel va boshqa minimal resurslar bilan mashg‘ulotlarni o‘tkazgan. Shu bilan birga, o‘quvchilarning 10 foizi o‘zlari o‘rta maktabni tamomlamagan o‘qituvchilardan dars olgan.

Xulosa. Taqdim etilgan ma’lumotlardan xulosa qilish mumkinki, Xindiston va Vetnam mamlakatlarida o‘quvchilarning ta’limdagi yutuqlarini baholash milliy tizimi joriy etilgan.

Har ikkala mamlakatda ham ushbu milliy tizim davriy ravishda amalga oshirilishi hamda muayyan sinf va fanlar miqyosida o‘quvchilarning yutuqlarini sinovdan o‘tkazishga qaratilgan. Baholashning maqsadidan kelib chiqqan holda, umumiy maktablarni qamrab oladigan representativlik tamoyili asosida tanlab olish tizimi joriy etilgan.

Baholash vositalari esa, test topshiriqlari bilan birga, ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish imkonini beradigan so‘rovnomalardan iborat. Vetnamdagi baholash jarayonlarida, test savollari Ta’limdagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining topshiriqlarini o‘z ichiga olganligi, mamlakat darajasida o‘quvchilarning yutuqlari bilan bir qatorda xorijiy mamlakat o‘quvchilari



bilan natijalarni solishtirish imkoniyatini berganligi ahamiyatlidir.

Milliy darajada o'quvchilarning yutuqlarini baholash natijalari xar doim xam maktablarning reytingda ishtirokiga oid tadqiqotlar natijalari bilan hamohang kelmasligi Xindiston tajribasi misolida ko'rib chiqildi. Shuningdek, Vetnamda o'quvchilar va o'qituvchilarga bir xil test topshiriqlari taqdim etish orqali ularning natijalarini sinab ko'rilishi esa, o'quvchining yutuqlari bilan bir qatorda o'qituvchilarning salohiyatlari haqida xam ko'proq tasavvurlarga ega bo'lish imkoniyatini yaratib bergan. Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, zamonaviy yondashuvlar asosidagi baholash tizimlari o'quvchilarning global kompetensiyalarini o'lchashga qaratilgan bo'lib, ularni rivojlantirish ustida ish olib borishni taqozo etmoqda. Shuningdek, o'quvchilar uchun zaruriy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun umumiy o'rta ta'lim tizimida dars berayotgan pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashga alohida e'tibor qaratish, shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining xam tayyorgarlik darajasini oshirish zaruriyati vujudga keladi.

Фойдаланилган манбалар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Тошкент шаҳри, 2019 йил 29 апрел, ПФ-5712-сон. www.lex.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. Тошкент шаҳри, 2018 йил 8 декабр, 997-сон. www.lex.uz.
3. Оценка образовательных достижений на национальном уровне/В.Грини, Т.Келлаган; пер. с англ. Т.Н.Леоновой; науч. ред. М.Б.Челышкова. – М.: Логос, 2011. – 216-с.
4. India, National council of educational research and training, Department of Educational Measurement and Evaluation. 2003. Learning Achievement of Students at the End of Class V. New Delhi: Department of Educational Measurement and Evaluation.
5. Исмаилов А.А. Ўқувчиларнинг таълимдаги ютуқларини баҳолаш: танлов рамкасини шакллантириш. “Замонавий таълим” илмий-амалий оммабоп журнали, 2021 йил 12-сон. ISSN 2181-6514 (чоп этиш жараёнида).
6. Prakash, V., S.K.S.Gautam, and I.K.Bansal. 2000. Student achievement under MAS: Appraisal in Phase-II States. New Delhi: National Council of Educational Research and Training.
7. Shukla, S., V.P.Garg, V.K.Jain, S.Rajput, and O.P.Arora. 1994. Attainments of primary School children in Various States. New Delhi: National council of Educational Research and Training.
8. Манба: Жаҳон банки, 2004, Оценка образовательных достижений на национальном уровне/Винсент Грини, Томас Келлаган; пер. с англ. Т.Н.Леоновой; науч. ред. М.Б.Челышкова. – М.: Логос, 2011. 216-с.



КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ОБРАЗОВАНИЮ В ЦЕЛЯХ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Н. ФАЙЗУЛЛАЕВА,

к.п.н, доцент

Ташкентский государственный
экономический университет

В статье раскрываются факторы перехода системы образования в интересах устойчивого развития. Данный процесс предполагает переход от традиционного обучения к экологически ориентированной модели, в основе которой должны лежать широкие междисциплинарные знания, базирующиеся на комплексном подходе к развитию общества, экономики и окружающей среды.

Ключевые слова: устойчивое развитие, высшее образование, экономический достаток, социальное обеспечение, подготовка кадров, экологическое образование.

Мақолада таълим тизимининг барқарор ривожланиш манфаатларига ўтиш омиллари очиб берилган. Бу жараёни анъанавий таълимдан экологик йўналтирилган моделга ўтишни назарда тутди, у жамият, иқтисодиёт ва атроф-муҳитни ривожлантиришга комплекс ёндашув асосида кенг фанлараро билимларга асосланиши керак.

Таянч сўзлар: барқарор ривожланиш, олий таълим, иқтисодий фаровонлик, ижтимоий таъминот, кадрларни тайёрлаш, экологик таълим

The article reveals the factors of transition of the education system in the interests of sustainable development. This process involves the transition from traditional education to an environmentally oriented model, which should be based on broad interdisciplinary knowledge based on an integrated approach to the development of society, the economy and the environment.

***Key words:** sustainable development, higher education, economic prosperity, social security, personnel training, environmental education*

Основные задачи непрерывного образования для устойчивого развития можно определить как стремление к достижению более высокой степени экономического развития и уровня достатка населения, бережное отношение к окружающей природной среде и сохранение природных ресурсов для последующего поколения. Рассматривая личностный аспект непрерывного образования, необходимо согласиться со следующим утверждением: необходимость непрерывного образования будет создавать «новых» людей, которые в процессе своего развития будущего, образование должно давать людям возможность брать ответственность за собственное развитие и принимать самостоятельное решение

Понятие устойчивое развитие было впервые применено в 1987 году в Док-



ладе Международной комиссии по окружающей среде и развитию «Наше общее будущее», во главе которой стояла премьер-министр Норвегии Гру Харлем Брундтланд. В своем докладе Брундтланд сформулировало направления перед какими экологическими глобальными проблемами оказалось человечество.

Новшеством послужило то, что в докладе было дано определение термину «устойчивое развитие», которое было определено как «развитие, обеспечивающее сбалансированное решение социально-экономических задач и проблем сохранения благоприятной окружающей среды, природно-ресурсного потенциала в целях удовлетворения потребностей сегодняшнего и будущих поколений людей».

Одним из основополагающим этапом в развитии образования в целях устойчивого развития стало проведение конференции ООН по окружающей среде и развитию в Рио-де-Жанейро (1992). Участники конференции пришли к единому мнению, что экономика должна служить обеспечению нужд человека, а не человек и природные ресурсы должны обслуживать экономику.

Результатом конференции стало определение базовых целей образования в целях устойчивого развития:

- экологические - вопросы нарушения экосистем, вмешательство человека в биосферу, бережного отношения к биологическому разнообразию и состоянию глобальной окружающей среды;
- экономические - проблемы роста цифровой экономики, ее эффективности, экономического неравенства;
- социальные – улучшение условий жизни населения, соблюдение принципов социальной справедливости, сохранение этнической культуры и следование конституционным нормам.

Необходимо научить учащихся анализировать вопросы о том, как развивать критическое мышление, размышлять какое место мы занимаем в мире, использовать разные форматы, которые необходимо успешно интегрировать в любую деятельность, рассматривать можно развивать устойчивое развитие. Им необходимо на практике рассматривать пути развития, необходимо создать образовательную среду, где педагог личным примером докажет важность и серьезность темы. В качестве примера могут быть совместные походы в парки и скверы, просмотры обучающих фильмов и роликов, дидактические игры на тему экологического разумного потребления, овладевать новейшими знаниями в этой области, учащиеся должны учиться обсуждать и понимать различие между теориями, а также участвовать в реализации концептуальных основ в практику. Такие умения, которые развиваются в процессе обучения, делают образование в интересах устойчивого развития частью



процесса воспитания нового информированного населения.

В наше время определены четыре задачи в области образования в интересах устойчивого развития:

- Улучшение доступа к высококачественному базовому образованию. Анализ затрат и выгод образовательной реформы четко показывает, что инвестиции, повышающие качество обучения, исключительно выгодны обществу. Эти тенденции неизбежно связаны в большей мере с качественными, а не количественными аспектами.

- Переориентация существующих программ образования, так как познавательные навыки определяются многими факторами, усилия, предпринимаемые государством для достижения большей эффективности, в основном сосредотачиваются на улучшении предоставления образовательных услуг. Парадокс заключается в том, что именно страны с высоким уровнем образования наносят наибольший ущерб окружающей среде, потребляя огромные объемы ресурсов и энергии, чтобы поддерживать привычный образ жизни.

- Повышение уровня информированности и развитие понимания широкой общественностью вопросов устойчивого развития. Для успеха в данном направлении результаты статистики показывают, что повышение информированности чаще достигается путем отбора более высококвалифицированных преподавателей.

- Подготовка кадров. Новые условия требуют инновационного подхода в системе подготовки будущих специалистов. Кадры – важнейшая часть интеллектуального потенциала любой страны. В образовательной политике важное значение имеет включение в систему образования участия представителей бизнеса, промышленности, неправительственных организаций.

Обоснование теоретических и практических этапов на пути к устойчивому развитию предполагает овладение соответствующими экономическими знаниями. Содержание этих знаний включает в себя:

- изучение противоречий между устойчивым развитием и особенностями модернизации экономики, умение построить модели возможных реакций на нее со стороны цивилизации;

- экономика является неотъемлемой составляющей устойчивого развития, но одного экологического образования недостаточно. Людям необходимо перестроить менталитет, изменить шкалу ценностей, научиться быть ответственными, вместе проектировать и выполнять решения.

- разработка и реализация программ устойчивого развития на глобальном, национальном и местном уровне является практическим механизмом решения проблем окружающей среды. Здесь нужны специалисты, которые



смогут лучше отвечать потребностям национальной экономики.

Важно признать, что в XXI веке обучение должно стать непрерывным процессом, который будет продолжаться в течение всей жизни человека.

Термину «непрерывное обучение» в английском языке соответствуют два слова: *lifelong* (учеба в течение всей жизни) или *учеба длительностью в целую жизнь*, непрерывная или периодическая и *lifewide* (учеба во всей полноте жизни) или *учеба, которая осуществляется во всем диапазоне человеческой жизни, в любых ее проявлениях*; при этом *учеба в стиле lifewide подразумевает высокую долю неофициальной и неформальной учебы в течение жизни человека, которая может проходить и проходит в семьях, во время досуга, в общественной жизни и ежедневной работе.*

К настоящему времени в мире сформировалось определенное академическое сообщество исследователей, которые понимают, что обеспечение высокого качества обучения в течение жизни (*Life-long learning*), доступного для всех, - это главная цель современной образовательной политики.

Нельзя не отметить и роль вузов в данном направлении. Активная деятельность вузов приводит к инициированию идей в области устойчивого развития. Высшие учебные заведения имеют большой образовательный ресурс, могут решать такие глобальные, как переход общества к устойчивому развитию.

Выпускники вузов - специалисты, приходящие работать в различные отрасли экономики, должны уметь учитывать интересы и необходимость обеспечения устойчивого развития общества, иметь навыки прогнозирования (проектирования) такого развития или, по крайней мере, создавать модели региональных социально-экономико-экологических систем и на их основе разрабатывать прогнозы эффективного социально-экономического и экологического развития.

Таким образом внедрение элементов образования в целях устойчивого развития требует формирования новой парадигмы образования. Введение идей образования в целях устойчивого развития в той или иной степени и форме в образовательные программы всех уровней образования позволит сформировать ценностные ориентиры и поведенческие установки, модели поведения и ведения деятельности подрастающего поколения.

К настоящему времени в европейских странах накоплен интересный опыт перестройки школьного образования, ориентирующий его на ценности устойчивого развития. ЮНЕСКО разработан специальный практический курс для учителей по образованию в интересах устойчивого развития (http://www.unesco.org/education/tlsf/TLsf/theme_d/uncofrm_d.htm).

Например, в Финляндии реализуется проект «ОСО - Окружающая сре-



да он-лайн - Глобальная виртуальная школа и портал по устойчивому развитию» ОСО является глобальной Интернет-школой (<http://eno.joensuu.fi>), в рамках которой на протяжении всего учебного года учащиеся раз в неделю изучают темы, связанные с устойчивым развитием.

В Великобритании создан специальный веб-сайт для школьников и учителей - www.schoolsfootprint.co.uk, - который позволяет получить набор инструментов и определить так называемый «Экологический след». Цель работы сайта заключается в предоставлении школам возможности подсчитать школьный экологический след, т. е. измерить влияние каждой отдельно взятой школы на планету.

Несомненным лидером в рассматриваемой сфере в Европе является Швеция. Движение общества в данном направлении ставится как одна из главных задач. Шведскому правительству не потребовалось много времени для осознания этого, и оно предприняло активные действия по экологизации учебных планов системы образования страны.

Сегодня качество нового образования - образования в интересах устойчивого развития - в значительной степени зависит от доступа к информационным и коммуникационным технологиям.

Не существует идеальной модели образования для устойчивого развития ни в одной стране в настоящий момент. Каждая страна должна определить свои программы действий и приоритеты, а также определить цели и задачи при внедрении образования в интересах устойчивого развития. При внедрении наибольший образовательный эффект достигается в том случае, если примеры, которые используются для объяснения проблем устойчивого развития, связаны с собственной страной, регионом или местностью, в котором живут обучаемые, а затем переходят на глобальный уровень.

Литература:

1. Повестка дня на 21 век, глава 36 «Содействие просвещению, информированию населения и подготовке кадров»: Конференция ООН по окружающей среде и развитию в Рио-де-Жанейро. - Нью-Йорк: ООН, 1992.
2. <http://www.ecoaccord.org/edu/AGENDA21Chapter36-Ru.doc>
3. Н.С. Файзуллаева. К вопросу изучения экономических категорий при формировании экономических компетенций. Журнал Современные проблемы социально-гуманитарных наук, 2016 № 5 (7), 8-12 стр.



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2022 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**